

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
«TABIIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI

“Himoyaga ruhsat etilsin”

Fakultet dekani

_____E.R.Yuzlikayeva

«_____» _____2014 yil

5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi 401-guruh
talabasi

Xudoyberganova Dildora Baxtiyor qizining

**“Germaniya Federativ Respublikasi iqtisodiyotini hududiy rivojlanishining
o'ziga xos xususiyatlari”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya

va uni o'qitish metodikasi»

kafedrasi o'qituvchisi

_____A.Nugmanova

Ilmiy maslahatchi: «Geografiya

va uni o'qitish metodikasi»

kafedrasi dots. g.f.n.

_____ N.Safarova

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Geografiya va uni o'qitish

metodikasi» kafedrasi mudiri

_____g.f.n. dots. N.R.Alimqulov

«_____» _____2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING GEOGRAFIKSHAROITIGA TAVSIF.....	9
1.1. Germaniya Federativ Respublikasining jahon iqtisodiyotida tutgan o' rni.....	10
1.2. Tabiiy sharoitlari va tabiiy resurslari va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati.....	16
1.3. Aholisi va mehnat resurslari	20
II BOB. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI HUDUDIIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	25
2.1. Germaniya Federativ Respublikasining tarmoqlar tuzilmasi va ularning hududiy rivojlanishi.....	25
2.2. Mintaqalararo farqi	38
2.3. Germaniya Federativ Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari.....	53
III BOB. JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIIY-IQTISODIIY GEOGRAFIYASINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....	61
3.1. Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasini o' qitishda pedagogik texnologiyaning ahamiyati.....	62
3.2. Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi (GFR misolida) bo' yicha dars ishlanmasi	78
Xulosa	88
Foydalanilgan adabiyotlar	90

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Yurtboshimiz o'zlarining "Yuksakma'naviyat - yengilmaskuch"

asarlarida haqliravish data'kidlaganlaridek "Agarkidunyoimoratlarini ichida eng ulug' imaktabbo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisio'qituvchilik va murabbiylikdir", desako'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.[2]

Ta'lim sohasidagi zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlarda, oliyo'quv yurtlariga, har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamintug'dirishning ingahamiyatini anglab olishimiz lozim. Mas'uliyatli va murakkab vazifa, davlatning boshqatad birlari qatorida, Respublika Oliy Majlisining 9-sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarish orqali bajariladi. Budasturni tarkibiy qismisifatida ta'limning yangi modeli yaratiladi. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, unio'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'xal osetish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksakma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish edi. Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lim-tarbiya modelini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Dastur mazmunida barkamol shaxs va malaka li mu'taxassisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to'la qonli ochib berilganidir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqich o'zida ta'lim jarayonini samaralitash kiletish, uniyu qoribosqichlarga ko'tarish, shubilan birgajahonta'limi darajasiga etkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim.

Mazkur jarayonning 1-bosqichida “O‘quv-uslubiy majmualarning ham data’lim jarayonidagi didaktika axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish”, 2-bosqichda “Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlarini va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash” hamda uchinchil bosqich (2005 va undan keyingi yillar) da “...ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash o‘quv-tarbiya jarayonini yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash” kabi dolzarb vazifalarini joriy haqda ilg‘or Respublika Prezidenti ta’lim-tarbiya sohasiga milliy didaktika nuqtai nazarini yondoshib, uni quyidagicha ta’riflaydi:

“Ta’lim O‘zbekiston xalqima’naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxshetadi. O‘zbekiston kelajak avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari undan amoyun bo‘ladi, kasb-kori, mahorati u zluksiz takomillashadi, katta avlodlarning donotajribasi anglab olinadivayoshavlodga o‘tadi”.

Jamiyatimizga qanchadan qancha bilim kadrlarini yuqori malakali olimlarni etishtirib kelgan pedagogika uslublarini mavjud ku, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarni o‘zgartirib, milliy tus berib, foydalanav ersabo‘lmaydimi? - degan mulohazalar ham yo‘q emas. O‘zbekistonning shukunda gipodagogik jamoatchilikning aksariyati, aynan manashuyshdan bormoqda. Buyo‘lilojsizlikdan izlab topilgan bo‘lib, qisqamuddat xizmat qilishi mumkin.

Mustaqillikni qo‘lgakiritgan va buyukkelajak sari intilayotgan jamiyatga buyo‘luzoq xizmat qila olmaydi. Chunki:

Birinchi dan:

ma’lum sabablarga ko‘ra jahon ham jamiyatitaraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiyotgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishi uchun,

aholita'liminijadallashtirishvasamaradorliginioshirishmaqsadidaengilg'orpedagogiktadbirlaridanfoydalanishzarurligi:

Ikkinchidan:

an'anaviyo'qitistizimiyozmavaog'zakiso'zlargatayanibishko'rishitufayli
"Axborotlio'qitish" sifatidatavsiflanib,
o'qituvchifaoliyatibirginao'quvjarayoniningtashkilotchisisifatidaemas,
balkinufuzlibilimlarmanbaigaaylanibqolganligi:

Uchinchidan:

Fan-

texnikataraqqiyotininigo'rtarivojlanganliginatijasidaaxborotlarningkeskinko'pay
ibborayotganligivaularniyoshlargabildirishhuchunvaqtningchegaralanganligi:

To'rtinchidan:

kishilikjamiyatio'z taraqqiyotiningshukundagibosqichidanazariyvaempirikbiliml
argaasoslangantafakkurdantoborafoydalinatijagaegabo'lgan,
aniqyakungaasoslangantexniktafakkurgao'tibborayotganligi:

Beshinchidan:yoshlarnihayotgamukammaltayyorlashtalabiulargaengilg'or
bilimberishusulihisoblanganob'ektivborliqqayondoshuvtamoyilidanfoydalanishn
italabqilishidadir. Pedagogiktexnologiyafaniyuqoridasanabo'tilgan 5
tasababiyshartlarningbarchatalablarigajavobberadiganta'limiytadbiridir. Uzluksiz
ta'lim tizimini rivojlantirishning eng katta yo'nalishlaridan biri bu uning
axborotlashtirilishidir. Bu o'quvchilarning o'qitish jarayoni davomida oladigan
taasurotlarini axborot tilining oshishiga olib keladi. Kelajak zamonaviy
o'quvchilardan axborot texnologiyalardan foydalanish sohasida katta bilim
zaxiraga ega bo'lishni talab qilmoqda. Hozirgi kunda insonni global
kommunikatsion sistemalar, internet dunyosida yashashga va tinmay mehnat
qilishga o'rgatish, uni har hil axborotlarni o'zlashtirilishiga tayyorlash, insonni
bu narsalarni tushunishiga o'rgatish o'qitishning muhim masalasi bo'lib
bormoqda. O'qitish maskanlarining kompyuterlar, interaktiv doskalar va boshqa
texnika turlari bilan ta'minlanishi o'qitish jarayonini takomillashtirishda juda
katta ahamiyatga ega. O'qitish jarayonida multimediya texnologiyalaridan

foydalanishi an'anaviy o'qitish metodlariga qaraganda quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- Darsni, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishni, ayniqsa yangi materialni tushuntirishni optimallashtirishga;
- O'qitish jarayonining original ob'ekti o'rniga kompyuterli, interfaol imitatsion modellardan foydalanish va jarayonni ichida kuzatib olib borishga;
- O'quv materialni qayta o'tkazilishini amalga oshirishga;
- Darslarning rivojlantiruvchi potensialini oshirishga.

Kompyuterli taqdimotlar har qanday materialni o'qitishning va taqdim etishning effektiv metodidir. Agar o'quvchilar qandaydir savolga javob bera olmasalar, to'g'ri javob topish uchun ma'lumotlar keltirilgan slydga qaytish imkoni bor. Shu tariqa qiyinchilik tug'dirgan materialning tahlili amalga oshiriladi.[1]

Germaniya Federativ respublikasi dunyo mamalakatlari orasida yuqori o'rinlarni egallaydi. Yalpi ichki mahsuloti va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keying 3-o'rinda turadi Tashqi savdo aylanmasining hajmi bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda turadi. Germaniyaning Yevropa va jahon xo'jaligidagi muhim ahamiyatini uning yuqori sifatli mahsulot chiqarishiga qaratilgan sanoat belgilaydi. [18]

Ushbu bitiruv malakaviy ishi Germaniya Federativ respublikasi iqtisodiyotini hududiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda mamalakatning iqtisodiyotini shakllanishida sanoat, qishloq xo'jaligi va noishlab chiqarish tarmoqlarining ahamiyati o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi:

- Globallashuv jarayoni ta'siri ostida ulkan rivojlanayotgan iqtisodiy aloqalarning internatsionallashuvi ya'ni hozirgi zamon dunyosida mamlakatlarni iqtisodiy yaqinlashishi va mamlakatlarni iqtisodiy

aloqalarini rivojlantirilishi ayrim davlatlarning xalqaro mexnat taqsimotida egallagan o'rnini bilan birga kuzatilmoqda. Bu mamlakatlarning ayniqsa dunyo iqtisodiyotida etakchi bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyotini ilmiy va amaliy jixatdan o'rganishga yordam beradi. Aynan shu jarayon malakaviy ishning dolzarbligini belgilab beradi.

- Bu birinchi navbatda GFR ga o'xshash rivojlangan mamlakatlarga taaluqli. Uning iqtisodiy rivojlanishi nafaqat u joylashgan mintaqada iqtisodi, balki boshqa davlatlar iqtisodi ayniqsa yirik mamlakatlar va ayniqsa butun dunyo iqtisodi bilan bog'liqdir.
- Mavzuning dolzarbligi yana mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xosligi bilan aniqlanadi. Zamonaviy Germaniyaning eng yangi tarixi 1990-yil 3-oktyabrdan Milliy birlashuv kuni, GFR va GDRni birlashuvi kunidan boshlandi. Aytish lozimki Germaniyaning birlashuvi yangi davlatning barpo bo'lishiga olib kelmadi GDR xalqaro siyosiy va iqtisodiy aloqalarini subyekt sifatida to'xtatdi. GFR esa ushbu sifatlarni saqlab qoldi, o'zining hududini va iqtisodiy salohiyatini kengaytirdi.
- GFR iqtisodiyotining keyingi rivojlanishini o'ziga xosligining biri, ikki Germaniyaning birlashishining noyobligi bilan belgilanadi. Insoniyat tarixida birinchi marta ikkita ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va rivojlanish darajasi turli xil bo'lgan davlatlar birlashdi. Bu bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashuvida o'zgarishlar yuz berdi. Demak Germaniya iqtisodiyotining hududiy joylashuvi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyati ikki mamlakat GFR va GDR ning qo'shilishi hamda Yevropa iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi bilan bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot obyekti: Germaniya Federativ respublikasi iqtisodiyoti.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Germaniya Federativ respublikasi iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Shundan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishning **maqsadi**: Yevropa iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida GFRni yuqori rivojlangan iqtisodiyotini hududiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida iqtisodiy geografik o'rnini;
- Mamlakat iqtisodiyotining hududiy joylashishida tabiiy sharoitning ahamiyatini;
- Mamlakat iqtisodiyotining hududiy joylashishida tabiiy resurslarning ahamiyatini;
- Mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan mehnat resurslari haqidagi statistik ma'lumotlarni;
- Mamlakat iqtisodiyotining hududiy joylashuvida transport va tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganish;
- Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarini o'rganish.

2008-yil jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz dunyo mamlakatlari qatori Germaniya Federativ respublikasining iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu esa unda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning salmog'iga ta'sir ko'rsatdi. Bu esa bir qancha korxonalarning sonini qisqarishiga, ishsizlar salmog'ini oshishiga olib keldi.[3]

Bitiruv malakaviy ish hajmi: Ishning umumiy hajmi 90 bet bo'lib, kirish, 3 bob, 8 ta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Unda 3 ta chizma, 8 ta jadval, 12 ta rasm mavjud. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati 18 manbaadan tashkil topgan. Bundan tashqari, ish so'ngida mavzuga oid so'zdan iborat o'zbekcha-inglizcha glossariy, qisqacha o'zbek, rus va ingliz tillaridagi annotatsiya mavjud.

I BOB. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING GEOGRAFIK SHAROITIGA TAVSIF.

Germaniya — (Deutschland) Yevropa qit`asining markazidajoylashgan, umumiy maydoni 357.021 km<sup>2</sup>ga teng bo`lgan mamlakat. Rasmiy nomi — Bundesrepublik Deutschland (BRD) – GermaniyaFederativRespublikasi. U Daniya, Polsha, Chexiya, Avstriya, Shveytsariya, Fransiya, Luksemburg, Belgiyava Niderlandiya kabi mamlakatlar bilan chegaradoshdir. Shimolda Shimoliy va Sharqiy dengiz orqali tabiiy chegara mavjud. Mamlakatning poytaxti va mamlakat boshqaruvi Berlin shahridadir. Ba`zibir federal vazirliklar eskipoytaxt Bonnda joylashgan.[18]

Shior: Einigkeit und Recht und Freiheit (nemischa: „Birlik va Huquq va Ozodlik“)

Aholisi 80523746 mln (2013-yil ma'lumotiga ko'ra) Yevropa Ittifoqidagi aholisi eng ko'p davlat hisoblanadi. Germaniya YaIM ko'rsatkichi bo'yicha jahonning qishloq xo'jaligi kuchli bo'lgan davlatlaridan biri hisoblanadi. Poytaxti - Berlin. Davlat tili - nemis. Dini – xristianlik. Pul birligi –yevro. Iqtisodi – metallurgiya, kimyo, avtomobilsozlik, kemasozlik va elektrotexnika. YaIM- 3.089 trlnAQSH dollar.

YaIM aholi jon boshiga-37814 ming AQSH dollar

HukumatParlamentlik - Respublika

- Prezident Yoxim Gauk
- Kansler Anjela Merkel
- Olmon Imperiya birlashishi 18 yanvar 1871
- FRG: G`arbiy Harbiy zonasidan 23 may 1949
- GDR: Sharqiy Harbiy zonasidan 7 oktabr 1949
- Garbiy van Sharqiy Germaniya birlashishi 3 oktabr 1990

Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta federalyerlikdan iborat bo'lib, uning umumiy maydoni 357021 km² ni tashkil etadi. Berlin, Gamburg, Myunxen, Kyoln va Frankfurt mamlakatning eng yirik shaharlari sanaladi.

1.1. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI.

Germaniya yaxlit davlat sifatida 1990 yil 3 oktyabrda tashkil topdi: Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashdi. Germaniya hududi 357022 ming km², aholisi- 80523746 kishidan ziyodroq. Hududining hajmi bo'yicha Germaniya Yevropada 5-o'rin (Fransiya, Ispaniya, Shvesiya va Norvegiyadan keyin)ni, aholisi soni bo'yicha 1-o'rinni egallaydi.

Germaniya Markaziy Yevropada joylashgan. Mamlakat quruqlik orqali Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Chexiya, Polsha va Daniya bilan chegaradosh. [18]

Dunyo siyosiy xaritasida GFRning tutgan o'rni

Rasm -1



Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishida uning siyosiy va iqtisodiy geografik o'rni muhim ro'l o'ynaydi.

Mamlakatning Yevropa markazida joylashgan o'rni va iqtisodiy rivojlangan davlatlar orasida kenglik va meridional yo'nalishda transyevropa magistral yo'lining kesib o'tganligi katta qulayliklarni yaratadi. Germaniyaning dengiz bo'yi o'rni va qo'shni davlatlar yirik shahar portlariga yaqinligi (Rotterdam, Antwerpen va boshqalar) uning katta imkoniyatlaridan biridir. Germaniyani shimoldan Boltiq va Shimoliy dengiz suvlari o'rab turadi. Ushbu dengizlarda uning Niderlandiya, Belgiya, Fransiyaning yirik portlaridan keyinda turuvchi Gamburg, Bremen, Vilgelsxafen, Rostok kabi portlari joylashgan. [10]

Germaniya jahonning yirik va iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Mineral xom-ashyo resurslariga boy. Masalan, ularga

toshko‘mir, temir va marganes rudasi, nikel, kobalt, volfram, molibden, mis, xrom, qo‘rg‘oshin, qalay, uran, kaliy tuzi, gilmoya va hakovlar kiradi.

Germaniya davlat tuzimi – 16 federaliyerni birlashtirgan respublika. Davlat boshlig‘i federal prezident. Qonunchilik hokimiyati palatalardan iborat, federal parlament: bundestag (deputatlar palatasi), va bundesrat (er palatasi). Ijroiyy hokimiyati federativ kansler boshchiligidagi mahkama tomonidan amalga oshiriladi.

Germaniya 1955-yildan buyon NATO harbiy bloki a‘zosi. Yevropa hamjamiyatiga kiradi. Germaniya G‘arbiy Yevropa va jahonning qudratli mamlakatlaridan hisoblanadi. Uning taraqqiy etgan mamlakatlar sanoati ishlab chiqarishidagi ulushi 12%, sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha AQSh va Yaponiyadan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Germaniya xalqaro migratsiyada ishtirokini ancha ko‘paytirdi va yirik kapital eksporti va importiga aylandi.

Germaniya – postindustrial mamlakat bo‘lib, iqtisodiyotining harakterli qirralari qo‘yidagilardan iborat:[5]

ishlab chiqarish va kapitalning yuqori darajada to‘plangani («Folksvagen», «Tissen», «Krup», «Simens», «Bosh», «BASF» konsernlari);

- ilmiy-texnika progressi (ITP) yutuqlarini doimiy joriy etilishi, ta’limga, ilmiy-tadqiqot, tajriba konstruktorlik (NIOKR)ga xarajatlarning o‘sishi;
- yuqori sifat va ekologik xavfsiz mahsulotlar evaziga raqobatbardoshlikni oshirish;
- xorijiy kapitalning sezilarli ro‘li.

Germaniyaning birlashishi jahon xo‘jaligi aloqalari va Yevropada vujudga kelgan siyosiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda olg‘a tashlangan qonuniy qadam bo‘ldi.[12]

Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashish gaturtkibo‘lgan iqtisodiy vaziyat quyidagicha kechgan:

- Germaniya iqtisodiyotining ishonchli rivojlanishiga qaramay, yillar davomida shafqatsiz raqobat, bozor to‘kinligi doirasi ufqlarida inqiroz (krizis) vaziyati xavf solib turardi;

- qo‘shni GDRdagi qudratli ijtimoiy dastur GFRni ijtimoiy sohalarga katta mablag‘ ajratishga majbur etadi;
- GDR mansub bo‘lgan sotsialistik mamlakatlar iqtisodiyotida inqiroz belgilari kuchaydi, sanoat o‘sish sur‘atlari pasaydi;
- sobiq GDR bozorlariga mol chiqarish imkoniyati kattaligi, barcha ishlab chiqarish turlarini taraqqiy etishi va yangi texnologiya qo‘llanilishi;
- GDR da nisbatan arzon ishchi kuchlari mavjudligi;
- GDR o‘zining iqtisodiy rivoji bilan jahonda 10-o‘rinda turadi. Birlashish jarayoni GFR tadbikorlariga moliyaviy qiyinchiliklar tug‘diradi.

Ikki davlatning bir-biri bilan birlashishga ijtimoiy siyosiy turtki Buyuk Germaniya g‘oyasi bo‘lib, u ko‘p asrlik tarixga ega. Birlashish arafasida bu g‘oya turli vositalar, usullar bilan zo‘r berib targ‘ib qilindi. Turli ishdagi kishilarga mo‘ljallab ishtiyoq bilan kitoblar yozildi, filmlar ishlandi. Harbiy jasorat, shon-shavkat, vatanparvarlik tushunchalari nemis millati bilan o‘zaro chuqur bog‘lanib ketgan edi.[14]

1990 yil 1 iyulda GDR va GFR o‘rtasida valyuta, ijtimoiy-iqtisodiy ittifoq haqidagi shartnoma kuchga kiradi. 1990 yilda 3 oktyabrda Berlin devori buzib tashlanadi. Germaniyaning G‘arbiy va Sharqiy erlari birlashishi oqibatida ijobiy va salbiy holatlar paydo bo‘ldi:

- G‘arbiy-nemis markasi sharqiy nemis markasini yutib yuboradi, sharqiy-nemislar jamg‘armalari tezda turli tovarlar va xizmatlarga sarflanib ketdi;
- GDRning raqobatga bardoshsiz ko‘pgina korxonalari yopildi, ishsizlik uchun to‘langan nafaqa yo‘qotilgan ishning o‘rnini qoplay olmaydi;
- turli ijtimoiy dasturlar qisqardi, inflyatsiya jarayonlari kuchaydi;
- mulkchilik bilan bog‘liq muammolar o‘tkirlashdi.

GFR qonunlari sharqiyerlarga tarqaldi. Ko‘pchilik sobiq egalar sharqiyerlardagi mulkini da’vo qilib chiqishdi.[10]

Birlashish g‘arbiy erlar uchun bir qator iqtisodiy tanlanishni vujudga keltirdi:

- milliy ichki mahsulot o'sish sur'atlari keyingi 15 yilda maksimal darajaga ko'tarilib -4,5 % ni tashkil etdi; ishlab chiqarish quvvatlari yuklanishi oshdi. Bandlik soni o'sdi, ishsizlar qisqardi;
- g'arbiyerlarda shaxsiy iste'mol soliqlarning kamayishi evaziga ko'paydi; Agar GFRda ilgari iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuch eksport bo'lsa, endi o'sishni ichki ustunligi rag'batlantirdi.

Germaniyaga chetdan kirib kelgan aholi oqimining kuchayishi uy-joyga bo'lgan talabni oshirdi. Bu esa qurilishga kapital qo'yilmalarni ko'paytirdi. Ishlab chiqarish quvvatlari yuklanishi ko'payishi va iste'mol mollarini ishonchli sotilishi sanoatda investitsiyalarning o'sishiga (12 %) olib keldi. Jami investitsiyalarning taxminan 25 % ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo'naltirildi. GFR va GDR qo'shilishi natijasida mamlakatdagi mavjud korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlari bir yil ichida 3,5 % ga o'sdi.[15]

Iqtisodiy vaziyatlarni ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, GFR va GDR qo'shilishi GFRni taraqqiy etishiga qudratli turtki bo'ldi.

Birlashgan Germaniya yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sish sur'atlari 1998 yilda 2,8 % ni tashkil etdi (Hozirda ya'ni 2011-yil ma'lumotiga ko'ra YaIM 3,089 trln. AQSH dollar). G'arbiy va sharqiy qismlar taraqqiyot sur'atlari yaqinlashishi ko'zga tashlanayapti. Ichki talabning o'sishi investitsion faollikka sabab bo'lmoqda. Kapital quyilmalar 4 % dan ko'proqqa ko'paydi. Investitsion faoliyatni ratsionalizatsiya va ishlab chiqarishni, modernizatsiya qilishga yo'naltirilishi iqtisodiyot rivojlanishini ta'minlabgina qolmay, balki sohaviy differensiatsiyani sezilarli saqlash imkonini berdi. Qurilish, to'qimachilik va tikuvchilik sohalarida inqiroz chuqurlashdi.[18]

Germaniyaning sharqiy qismi investitsiyalarga davlat hamkorlik qiladigan istiqbolli rayon bo'lib qoladi, birinchi navbatda yuksak texnologiyalar sohasida. Hukumat sharq erlarini moliyalashtirishni kelajakda ham qo'llab-quvvatlashda davom etadi.

Germaniyaning tashqi iqtisodiyoti. Germaniya tashqi siyosatining muhim tomonlaridan biri uning Yevroittifoq davlatlari bilan integratsiyalarning kuchaytirilishidir.

1950 yilda Germaniya Yevropa Kengashiga a'zo bo'ldi, 1957 yida Rim kelishuviga imzo chekdi. Bu hujjatlar evropa ittifoqining tuzilishiga sabab bo'ldi. Germaniya Yevropa iqtisodiy hamkorlik va YEVRATOM tashkilotlariga a'zo bo'ldi.

1964 yildan Germaniya "O'nlik guruhi"ga qo'shildi.

Sovuq urush davrida Germaniyaning tashqi siyosati chegaralangan edi. Uning eng asosiy vazifalaridan biri Sharqiy va G'arbiy Germaniyani birlashtirish edi. GFRning NATO bilan harbiy-siyosiy aloqalari uzviy bo'lib, Garbiy Germaniya hududida AQSHning yadro qurollari joylashtirilgandi. [12]

BugungiGermaniya Sharq va G'arb, Skandinaviya va O'rtayerdengizi hududlari hamda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi bog'lanish markazi hisoblanadi.

Germaniyaning iqtisodiyoti. YaIM bo'yicha 2009 yida Germaniya AQSh, Xitoy, Yaponiya va Hindistodan keyin 5-orinni egalladi. GFR eksport bo'yicha lider mamlakatlardan biri hisoblanadi. Turmush tarzi darajasi bo'yicha inson potentsiali rivojlanishiga ko'ra dunyoda 10-o'rinda turadi.[4]

- Germaniyaning dunyo bo'yicha YaIMdagi ulushi – 3,968 %
- Germaniyaning Yevroittifoq mamlakatlari bo'yicha YaIMdagi ulushi – 30 %
- Aholi jon boshiga YaIM – 43741 ming dollar (2011-yil ma'lumotiga ko'ra)
- 2006 yilga davlat byudjeti defitsiti – 1,7 %
- Germaniyaning kichik va o'rta biznes korhonalariida ishlab chiqarilgan YaIMning 57 % va ishchilar o'rning 70 % to'g'ri keladi.
- YaIMning 38 % sanoat, 2% qishloq xo'jaligi, 60 % maishiy xizmat sohasiga to'g'ri keladi.

- 2011 yilgi ma'lumotlarga ko'ra o'rtacha ishsizlar soni 3,0 mln. Ya'ni mehnatga layoqatli aholining 7% tashkil etadi.

Iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra 2 ta iqtisodiy zona ajratiladi.

1. G'arbiy Germaniya- u Reyn-Vestfal va janubi-sharqiy rayonlardan iborat.
2. Sharqiy Germaniya- u umumiy maydonining 30 foizini. Aholisining 19 foizini. YaIM ning 12 foizini beradi. [12]

1.2. TABIIY SHAROITI VA TABIIY RESURSLARI VA ULARNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Germaniya Markaziy Yevropada joylashgan. Mamlakat quruqlik orqali Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Shveysariya, Avstraliya, Chexiya, Polsha va Daniya bilan chegaradosh. Shimolda uning chegaralarini- Shimoliy va Boltiq dengizlari bo'g'ozi ajratib turadi. Shvetsiyadan Germaniyani Boltiq dengizidagi bo'g'ozi ajratib turadi. Yirik daryolari: Reyn, Dunay, Elba, Oder hisoblanadi. Sharqiy Frizis orollari, Shimoliy dengizdagi Gelgoland, Femarn. Ryugen, Xudenzee, Uzedom orollarining katta qismi va Boltiq dengizidagi bir qancha mayda orollar Germaniya tarkibiga kiradi. Mamlakat janubi-g'arbining katta qismida Yura va Shvartsvald tog'lari egallab, g'arbda uncha katta bo'lmagan- Eyfel va Gensryuk, mamlakat markazida-Taunus va Shpessart, sharqida esa-Fixtelgerberg tog'lari joylashgan. Mamlakatning eng katta –Boden ko'li qisman Avstriya va Shveysariya hudularida joylashgandir.

Mamlakat rel'yefi: Mamlakat hududi 3 ta asosiy zonadan: shimolda tekislik, markazda daryo vodiylari va janubda tog'liklardan iborat.

Qirg'oqdanuzoqbo'lmagan joylardabirguruhorollar:

boltiqdengizining shimolivasharqida Frizskorollari,
shimoliydengizda Femoriva Ryugnorollar mavjud.

Mamlakat markaziy qismining relyefi turlicha tepaliklar va o'rta balandliklardagi tog'lar platovadaryo vodiylari bilan ketma-ketlikda almashinib kelinadi. Eng janubiy qismida Alp tog' tizmasi joylashgan bo'lib, uning eng baland nuqtasi Zyugshpitse (2963m). Germaniyada bundan tashqari Reyn, Slantsev, Gerts, Rud tog'lari mavjud. (Rasm-2)

Mamlakat iqlimi dengizlidan kontinentalga o'tadigan mo'tadildir. Eng sovuq oyning o'rtacha havo harorati -3°C dan $+2^{\circ}\text{C}$ gacha, iyul oyining harorati esa $+16^{\circ}\text{C}$ dan $+20^{\circ}\text{C}$ gacha bo'ladi.[8]

Germaniyaning relyef kartasi

Rasm-2



Germaniya manzarasi benihoya xilma-xil va jozibador. Past va baland tog' tizmalari oralarida yassitog'liklar, o'rqirlar, ko'llar, keng va ochiq tekisliklar uchrab turadi. Shimoldan janubga tomon Olmoniya 5 landshaft zonasiga bo'linadi: Shimoliy Olmoniya payettekisligi, o'rtacha balandlikdagi tog' ostonasi, Janubi-g'arbiy Olmoniya burma poydevorli o'rta tog'ligi, Janubiy Olmoniya Alpoldi yassitog'ligi va Bavariya Alp tog'lari. Shimoldagi payettekisliklarda ko'llar, qirli, qum va tuproqli platolar, yaydoq erlar va torfli botqoqlar ko'p. O'rta tog' ostonasidan shimoliy tomondagi erlar (Quyi Reyn, Vestfaliya va Saksoniya-Tyuringiya havzasi) serhosil. Janubda Sharqiy Alp tog'lari qad ko'targan (eng baland nuqtasi SugShpitse tog'i, 2962 m). Shimoliy dengiz bilan Boltiq dengizi oralig'idagi past-baland qirg'oqlarda „Golshteyn Shvey-sariyasi“ joylashgan. Olmoniyayer ostida tosh-ko'mir, qo'ng'ir ko'mir,

tuzlar juda ko'p. Oz miqdorda temir rudasi, neft, tabiiy gaz bor. Iqlimi mo'tadil, dengiz iqlimi, g'arb va shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa tomon dengiz iqlimidagi mo'tadil-kontinental iqlimga o'ta boradi. Yanvarning o'rtacha harorati pasttekislikda 1,5 °C dan tog'larda — 6 °C gacha; qishda sertuman, qor tez erib ketadi. Iyulning o'rtacha harorati pasttekislikda 18 °C dan janubiy vodiylarda 20 °C gacha. Yillik yog'in miqdori 600-800 mm. Baland tog'larda yoz salqin, yog'in 1000-2000 mm. Daryolari: Elba, Reyn, Dunay, Mayn, Vezer, Shire, Mozel. Yirik ko'llari: Voden, Myurits. Tuprog'i asosan podzol, chimli podzol va qo'ng'ir o'rmon tuproqlaridan iborat. Gars tog'larining sharqiy va shim. tog' oldi joylarida unumdor qoramtir tuproq uchraydi. Tog'larda qoraqayin, dub, oq va qora qarag'ay o'sadi. Bug'u, elik, serna (tog' echkisi), ohu va boshqalar yashaydi. Milliy bog'lari — Bavariya o'rmoni, Berxtesgaden. [11]

Tabiiy boyliklari rudali qazilmalarning konlari o'rtacha balandlikdagi tog'larga, neft va tabiiy gaz konlari esa Shimoliy Germaniya pasttekisligiga to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasida Germaniya o'zining toshko'miri va qo'ng'ir ko'miri bilan ajralib turadi. Toshko'mirning asosiy konlari Rur, Saar va Axen xavzalarida joylashgan, ko'mirning 2/3 qismi yuqori sifatli kokslanadigan ko'mirdir. [5]

Qo'ng'ir ko'mirning ishonchli zaxiralarining katta qismi sharqiy Germaniyada joylashgan. U ochiq usulda qazib olinadi.

Tabiiy gaz konlari mamlakatning shimolida to'plangan. Temir rudalari zaxiralari mavjud bo'lsada, biroq ularning sifati past. Shimoliy Germaniya pasttekisligida tosh tuzining katta qatlamlari joylashgan. Kaliy va magniy tuzlarining zaxiralari ham mavjud. Qurilish materiallari ishlab chiqarish va shisha sanoati uchun hom-ashyo resurslari kattadir. [10]

Mamlakatning yirik daryolari – Reyn, Elba, Vezer, Ems va Dunay hisoblanadi. Barcha muhim daryolar kanallar bilan tutashtirilgan. 1993-yilda Shimoliy dengizdan Qora dengizgacha bo'lgan transyevropa suv yo'lining qurilishini yakunlagan Mayn-Dunay kanali ochildi. O'rta Germaniya kanali va uning Berlin hamda Vezer daryosigacha bo'lgan davomi ta'mirlanmoqda.

Xalqaro daryo mavqeyiga ega bo'lgan Reyn daryosining iqtisodiy ahamiyati Germaniya uchun juda muhimdir. [9]

**Foydali qazilmalarning umumiy zaxirasi va dunyodagi ulushiga oid
ma'lumot (2013-yil ma'lumoti) Jadval-1**

Foydaliqazilmalar	Zahirasi		Rudadagifoydali komponentlar , %	Dunyodagi lushi, %
	Aniqlan gan	Umumiy		
Barit (ming tonna)	1000	1200	30 - 65 (BaSO ₄)	0,3
Volfram (ming tonna)	80	106	0,2 (WO ₃)	3,1
Temir ruda (mln tonna)	920	3000	28 (Fe)	0,5
Oltin		30	/	
Kaliytuzi (mln tonna)	720	1000	14 (K ₂ O)	9,6
Mis(ming tonna)	1400	1420	1,42 (Cu)	0,2
Neft(mln tonna)	53,2	22,8		
Qalay(ming tonna)	20	20	0,4	
Kislotalishpat, (mln tonna)	3,1	4,6	45 (CaF ₂)	1,6
Tabiiygaz, (mlrd. m ³)	350			0,2
Qo'rg'oshin(ming tonna)	550	125	1,6 (Pb)	0,5
Ko'mir, mlnt	105540	308300		
Fosforitlar, mlnt	0,2	0,4	20 (R ₂ O ₅)	
rux, ming. t	1200	3000	2,8 (Zn)	0,4
kumusht	200	5600		
Uran, t	4800			

**1.3.GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING AHOLISI
VA MEHNAT RESURSLARI**

Germaniya Federativ Respublikasining aholisi 2014 yil ma'lumotiga ko'ra 81 672 920 kishini tashkil etadi. Aholining 49.0 foizi ya'ni 40 052 964 kishi erkaklar, 51.0 foizi, 41 619 955 kishini ayollarni tashkil etadi. Aholining o'rtacha zichligi 2013 yil ma'lumotiga ko'ra har 1 km² ga 229.12 kishidan iborat.

Mamlakat aholisi tabiiy ko'payishda o'limning tug'ilishga nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. (Ayniqsa sharqiy erlarda). [6]

Hozirgi kunda tug'ilish ko'rsatkichi 8 foizni tashkil qiladi. O'lim ko'rsatkichi 10 foiz, tabiiy o'sish esa -0.2 foizni tashkil qiladi. Demograflarning bashoratiga ko'ra tabiiy o'sish shu holatda davom etsa u holda aholining soni 2025-yil 78.7 mln kishiga, 2050-yil esa 69.4 mln kishiga tushib ketishini mumkin deb taxmin qilinmoqda. Mamlakatda 60 yoshlilar 23 foizni tashkil etsa, 2030 yilga kelib bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil qiladi. Shu bilan birga yuqorida aytganimizdek aholi soni 2050 yilga borib 16 foizga kamayib va qarib boradi. Mamlakat fuqorasining har bir uchinchisining yoshi 60 yoshga teng bo'ladi.

Germaniya aholisining umumiy soni immigrant oqimlar hisobiga o'smoqda. (Turkiyadan, sobiq Yugoslaviya respublikalaridan, Italiya, Portugaliya va boshqa mamlakatlardan). Migratsion saldosi 2 % ni tashkil qiladi. Mamlakatning birlashuviga qadar uning g'arbiy yerlarida 5 mln atrofida, sharqiy qismida esa -0,2 mln chet ellik immigrantlar bo'lgan. Hozirgi vaqtda ularning soni 7 mln kishiga etadi. Umumiy o'rtacha umr ko'rish 80 yoshdan iborat. Erkaklar 77 yosh. Ayollar 83 yoshni tashkil qiladi. Urbanizatsiya darajasi 87 foizni tashkil qiladi. [7]

Mamlakat aholisining milliy tarkibining katta qismini nemislar ya'ni 93 foizni tashkil etadilar. Shuningdek mamlakatda boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Turklar-2.4 foiz, slovyanlar -0.9 foiz, italyanlar-0. Foiz, greklar-0.4 foiz, polyaklar-0.3 foiz, bosniyaliklar 0.25 foiz, avstriyaliklar 0.2 foiz, 0.1 foizini serblar, datchanlar, siganlar tashkil etadi. Germaniyada davlat tili-nemis tili hisoblanadi. [5]

Dini. Nemislarni katta qismi xristian, ularning 32.4 foizi katolik, 32.0 foizini lyuteranlar, 1.14 foizini pravoslavlar tashkil etadi. Shu bilan birga mamlakatda xristian dinining boshqa kichik oqimlariga e'tiqod qiluvchilar 0.46

foizni tashkil etadi. (baptist, metodist yangiapostol cherkovi) . Aholining 3.8 mln dan 4.3 mln.gachasi yoki 4.5 foizdan 5.2 foizgachani musulmonlardir.

Mamlakat aholisining 87 foizi shaharlarda yashaydi.Ko'pgina shaharlar aglomerasiyalar yadrosini hosil qilgan, lekin aholisi 1mln dan ortiq shaharlar unchalik ko'p emas (Berlin, Gamburg, Myunxen). Germaniyaning hozirgi chegaralari 1990 yilning oktabrida ikkala GFR va GDR davlatlarining birlashuv yo'li bilan tashkil topdi. Natijada birlashuv jarayonidan keyin GFR hududi 47 foizga ko'paydi.Aholisi esa 27 foizga o'sdi.[4]

Mehnat resurslari. Germaniyaning mehnatga layoqatli aholisining 60 foizi iqtisodiyotida faol aholi hisoblanadi. Shundan maishiy xizmatda 60 foiz, qurilish va sanoat tarmoqlarida 37 foiz, qishloq xo'jaligida 3 foiz. 10 foizga yaqin faol aholisi hozirgi kunda ishsizdir. [13]

Buyerda, nafaqat kichik va o'rta miqyosdagi, balki qator yirik kompaniyalar ham oilaviy hisoblanadi. Ularning eng qudratli orasida Tissen, Bayer, Flik, Simens Kvandit, Opel, Bosh, Grundig, Nekkerman kabi oilalarning korxonalari mavjud. Aynan ular eng katta moliyaviy barqarorlikka ega. Nyurnbergdagi «Veysman Si» auditorlik kompaniyasi o'tkazgan o'rganishlarning natijalari shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. Ekspertlar 34 ta yirik oilaviy firmalarni o'rganib chiqib, ularda xususiy kapital ulushi o'rtacha 34,8 foizni tashkil etishini aniqladilar. Xususiy kapitalning 50% dan ziyodi o'tgan yilning oxirida «Xerazus», «Knauf» va «Beyersdorf» kompaniyalari hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, ko'pgina Germaniya firmalarida deyarli barcha aksiyalar bir kishining qo'lida to'plangan. Beshta eng yirik tadbirkorlar aksiyalarning 40 foiziga egalik qilishadi. Holbuki Yaponiyada bu ko'rsatkich– 25%, Amerika va Buyuk Britaniyada esa – 10% dan kam.

Germaniya mehnat bozoridagilarning 60 foizi oilaviy korxonalarda ishlaydi.Bu erda oilaviy korxonalar soni bir milliondan oshadi.Shu bilan birga, aksariyat Germaniya oilaviy korxonalari uchinchi, hatto to'rtinchi avlod tomonidan boshqarib kelinyapti.Bu oilaviy korxonalar biznesni o'z qo'llarida ushlab qolish uchun odamning aqli etmaydigan uslublarni o'ylab topishadi.

1990 yillar oxiriga kelib, birlashgan Germaniyada soliq, nafaqa va ta'limda islohatlar boshlandi. Hukumat davlat moliyalashtirishini sog'lomlashtirish vazifasini qo'ymoqda. Bu soliqdagi katta kemtiklarni va to'lovlarni 35 % ga qisqartirish imkonini beradi. Soliq islohatlari birinchi bosqichi 1999 yilda boshlandi. Ish haqidan soliqlarni kamayishi va korporatsiyalar daromadlari neft mahsulotlari va elektr energiyasiga soliqlarni oshirish yo'li bilan qoplanadi. Ish haqi siyosati sohasida kurs o'sishni ushlab qaratilgan. Keyingi 2 yilda bir ish soatiga hisoblangan mehnat haqi ta'rifi 1,7 % ga ko'paydi. Bunda ish haqi hajmining o'zgarishi mehnat unumdorligining o'rta mudatli dinamikasiga mo'ljallanayapti.[17]

Germaniyada iqtisodiy islohatlarning muhim yo'nalishi 10-12 % ni tashkil etgan ishsizlikka qarshi kurash (4 mln. kishidan ziyod) hisoblanadi. Yangi ish o'rinlari yaratish, ayniqsa sharqiyerlarda, asosiy vazifa bo'lib turibdi.

Nafaqa (pensiya) islohatlarida asta-sekin jamg'arib boriladigan tizimga o'tish mo'ljallanayapti. Bunda majburiy nafaqa sug'urtasi saqlanib qoladi. Ayrim yuqori nafaqalar hajmi kamaytiriladi, kam daromadli shaxslar qo'shimcha to'lovlar oladi. 1999 yil 1 yanvardan boshlab pensiya jamg'armasiga badallar 0,8 % ga kamaydi.[16]

1999 yildan boshlab Germaniyada ta'lim islohatlari boshlandi. Uning bosh maqsadi-yoshlarni sifatli ma'lumot olishlarida ota-onalari daromadlariga bog'liq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Germaniya hukumati uch yil davomida fan va ta'limga xarajatlarni ikki borobar oshirishni rejalashtirilayapti.

Germaniya Federativ Respublikasining demografik ko'rsatkichlari

Jadval-2

№	Demografik ko'rsatkichlari	Foiz hisobida
1.	Umumiy aholisi soni	80.5
2.	Aholi zichligi	229
3.	Tug'ilish koeffisienti	8
4.	O'lim koeffisienti	10

5.	Tabiiy o'sish darajasi	-0.2
6.	Migratsion saldo	2
7.	Yosh bolalar o'limi	4
8.	15 yoshgacha bo'lgan aholi soni	13
9.	65 yoshdan yuqori bo'lgan aholi soni	21
10.	Umumiy o'rtacha umr ko'rish darajasi	80
11.	Erkaklarning umr ko'rish darajasi	77
12.	Ayollarning umr ko'rish darajasi	83
13.	Urbanizatsiya darajasi	73

Federal erlarning maydoni va aholisiga oid ma'lumotlar

Jadval-3

№	Federal er nomi	Maydoni kv.km	Aholi soni (2012 yil)	Aholi zichligi 1 kv.km
1.	Bavariya	70549	12397614	176
2.	Baden-Vyurtemberg	35752	10486660	293
3.	Berlin	892	3292365	3691
4.	Brandenburg	29478	2455780	83
5.	Bremen	404	650863	1611
6.	Gamburg	755	1706696	2261

7.	Gessen	21115	5971816	283
8.	Meklenburg	23179	1609982	69
9.	Quyí Saksoniya	47620	7777992	163
10.	Reynland-Pfals	19853	3989808	201
11.	Saar	2569	999623	389
12.	Saksoniya	18415	4056799	220
13.	Saksoniya-Anxalt	20446	2287040	112
14.	Shimoliy Reyn-Vestfaliya	34084	17538251	515
15.	Tyuringiya	16172	2188589	135
16.	Shlezvig-Golshteyn	15763	2800119	178

II BOB. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI HUDUDIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Germaniya Federativ Respublikasi Yevropadagi eng rivojlangan mamalakatlar ichida ulkan iqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasining o'ziga xos xususiyatlari bilan keskin ajralib turadi.

YaIM va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha AQSH va Yaponiyadan so'ng 3-o'rinda turadi. Tashqi savdo aylanmasining hajmi bo'yicha jahonda 2-o'rinda turadi. Germaniyaning Yevropa va jahon xo'jaligidagi muhim

ahamiyatini buning yuqori sifatli mahsulot chiqarishiga qaratilgan sanoat belgilaydi. [12]

2.1. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI TARMOQLAR TUZULMASI VA ULARNING HUDUDIIY RIVOJLANISHI

Germaniya dunyoda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlardan biridir. Germaniya iqtisodiyoti yaxshi rivojlanganligi infratuzilmasi va malakaliy ishchi kuchi ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi mamlakat sanoat ishlab chiqarishi va yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha faqat AQSH, Yaponiya va Xitoydan keyinda turadi. Tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. GFR xo'jalik xususiyatiga ko'ra postindustrial davlat hisoblanadi. Germaniya sanoati Yevropa va jahon bozorida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvida muhim ro'l o'ynaydi.

Fantalab tarmoqlarning hissasi ortib bormoqda. Stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jixozlarini, avtomabil, organik kimyo mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha Germaniya dunyodagi oldingi o'rinlardan birini egallaydi. GFR ning barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy koorparatsiyalardan iboratdir. ("Daimler-Benz", "Wolswagen", "Siemens", "Hoechst", "Bayer").

GFR da elektr-energiyaning asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. IES lar Rur va Saar havzalarida, port shaharlarida-ko'mir, neftni qayta ishlash markazlarida-mazutda ishlaydi, boshqa IES lar esa aralash yoqilg'ida ishlaydi. Keyingi vaqtda mahalliy ko'mirga nisbatan Avstraliyadan arzon bahoda olib kelinayotgan ko'mirning ahamiyati oshib bormoqda. AESlarda elektr quvvatining 30 foizi ishlab chiqariladi. GES lar asosan mamalkatning janubida joylashgan. [8]

Hozirgi Germaniya xo'jaligining tarmoq va hududiy tarkibi rivojlanishida GFR va GDR davlatlarining qirq yillik bo'linishi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat birlashuvidan keyin Sharqiy yerlarda xo'jalikni rivojlantirish muammolari sezilarli kuchaydi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish pasayishi ro'y berdi. Shuningdek ijtimoiy muammolar vujudga keldi. (shu

jumladan ishsizlik). GFRda xo'jalikni rivojlantirish darajasiga ko'ra hududiy nomutanosibliklar kuchaydi. Shunday qilib 1994 yilda Germaniya aholisi 20 foiz aholisi yashovchi sharqiyerlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bor yo'g'i 4 foizni tashkil etdi.[11]

GFR —xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan industrial mamlakat. Umumiy iqtisodiy qudratiga ko'ra dunyoda uchinchi o'rinda, jahon savdosida ikkinchi o'rinda turadi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat va qurilishning ulushi 33,6 % ni, qishloq xo'jaligining ulushi 1,2 % ni tashkil etadi.

Sanoati. Mamlakat sanoat tarmoqlar tarkibida qayta ishlash sanoati hissi juda yuqori. (Qazib chiqarish sanoati xissasi g'arbiyyerlarda 2 foiz, sharqiyerlarda esa 9 foizni tashkil etadi). Germaniyada bir qancha qazib chiqarish (temir rudasi, mis rudasi, uran rudasi) tarmoqlari o'z faoliyatini amalda to'xtatgan. So'nggi yillarda import asosida olib kelinadigan arzon xom-ashyo iste'molning o'sish hisobiga ko'mir sanoatida toshko'mir qazib chiqarish keskin qisqarmoqda.

Keltirilgan hom-ashyolar mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchidir. Qo'ng'ir ko'mir (dunyoda birinchi o'rin), toshko'mir, neft, tabiiy gaz, polimetall rudalar, kaliy va oshtuzi qazib olinadi. Energetika, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kemasozlik, kimyo va neft kimyosi, yog'ochsozlik, oziq-ovqat sanoati, chinnisozlik g'oyat rivojlangan. Germaniya sanoati asosan mayda va kichik korxonalardan iborat. [12]

Sanoatda band bo'lgan barcha xodimlarning 32 % dan ko'prog'i (2,2 mln. kishi) yirik firmalarda ishlaydi. „Simens“ konserni, „Folkswagen“, BMW va „Daymleer Bens“ kabi avtomobilsozlik firmalari, „Xyoxst“, „Bayer“ va BASF kabi kimyo konsernlari, „Rurkole AG“ ko'mir qazish firmasi, „FEBA“ va „RVE“ elektr texnika konserni yoki „Bosh“ guruhi butun dunyoga mashhur bo'lib, dunyoning hamma joylarida filiallari, korxonalari yoki tadqiqot muassasalari bor. Yirik firmalar ko'pdan-ko'p mayda va o'rta korxonalarning buyurtmachisi hisoblanadi. Transport vositalari ishlab chiqarish, mashinasozlik,

kimyo sanoati, elektr texnika, oziq-ovqat, metallurgiya, konchilik, aniq mexanika va optika, aviatsiya va kosmik sanoati asosiy tarmoqlardir. [16]

Texnika taraqqiyoti sohasida Olmoniya sanoati dunyoda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Olmoniya iqtisodiyoti yuksak texnologiyalardan foydalanish tufayli farmatsevtika mahsulotlari, eng yangi organik kimyoviy moddalar va sun‘iy materiallar, tibbiyot elektronikasi, optika va o‘lchov asboblari ishlab chiqarishda, yangi avtomobillar yaratish va mashinasozlikda, telekommunikatsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyalari sohasida dunyodayetakchi o‘rinda. Olmoniyada qadimdan va go‘zal an‘-analarga ega bo‘lgan hunarmandchilik rivoj topgan.

Energetika sanoati o‘zining yoqilg‘iga bo‘lgan ehtiyojining yarmidan ortig‘ini import hisobiga ta‘minlaydi. Germaniya yoqilg‘i-energetika balansida neft va tabiiy gaz muhim ro‘l o‘ynaydi. Ko‘mir hissasi esa 30 foizni tashkil etadi. Neft mamlakatga neft quvurlari va tankerlar orqali Shimoliy dengiz, Rossiyadan, Afrika mamlakatlari (Nigeriya, Liviya) va Fors qo‘ltig‘i mamlakatlaridan tashib keltiriladi. Neftni qayta ishlash zavodlari mamlakat bo‘ylab bir tekis joylashgan bo‘lib, uning Gamburg, Kyoln, Karlsrue, Ingolshtadt, Shvedt kabi yirik markazlari ishlab turibdi. Neft va gazni qayta ishlovchi markaz Gandove hisoblanadi. [4]

Noan‘anaviy resurslardan foydalanish rivojlangan mamlakatlarga xos xususiyatdir.

Rasm-3



GazsanoatiNiderlandiyadan,

ShimoliydengizdagiNorvegiyagaqarashlikonlardan,

Rossiyadanvamahalliykonlardanqazibolinadigantabiyygazlargatayanadi. 1950 yillarga kelib mamlakatda toshko'mir qazib chiqarish 152 mln tonnaga etkazilgan edi.O'sha davrlarda toshko'mir sanoati energetik sanoatining asosini tashkil etgan edi.So'nggi yillarda ushbu sanoatda toshko'mir qazib olish qisqarib bormoqda. Natijada Germaniya eng ko'p ko'mirni eksport qiluvchi mamlakatlardan eng ko'p ko'mirni import qiluvchi mamlakatga aylandi. (Jahon bozorida ko'mir Germaniya ko'miriga nisbatan 3-4 marta arzon). 1994 yilda mamlakatda ko'mir qazib chiqarish 57,6 mln tonnagacha kamaydi. Germaniyaga ko'mirning katta qismi AQShdan, Polsha, JAR va hatto Avstraliyadan tashib keltiriladi. G'arbiy Germaniya birlashuviga qadar qo'ng'ir ko'mir qazib chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropada birinchi, Sharqiy Germaniyada esa dunyoda oldingi o'rinlarni egallagan.(Hozirgi vaqtda 2012-yilda 250 mln tonnadan ortiq ko'mir qazib chiqarilmoqda).GFRda asosan elektroenergiya issiqlik elektrstansiyalarda ishlab chiqariladi. Mamlakatda issiqlik elektrstansiyalar Rur va Saar hovzalari va port shaharlarida ko'mirga tayanib, ishlamoqda shimolda esa tabiiy gazga, neftni qayta ishlash markazlarida esa mazutga tayanib ishlaydi. AESlarda esa elektroenergiyaning 30 foizi ishlab chiqarilmoqda.GESlar asosan mamlakatning janubida qurilgan. (tog' daryolarida). Umumiy elektr-energiyaning 80 foizi IESlarda ishlab chiqariladi.20 mln kilovat soat energiya ishlab chiqarish imkoniyati bo'lgan AESlar ham mavjud.[17]

Qora metallurgiya sanoati- Germaniyaning eng muhim ixtisoslashgan tarmog'idir. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra (46 mln tonna) jahonda 5-o'rinda turadi. Mamlakat cho'yan, po'lat quyish va prokat ishlab chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropada etakchi o'rinda va dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Quyiladigan po'latning deyarli hammasi kislorod-konvertor va elektrpo'lat quyish usuli orqali ishlab chiqariladi. Asosiy metallurgiya zavodlari Rur va Quyi Reynda joylashgan. Saar rayoni, Quyi Saksoniya va Bremenda to'liq siklda ishlovchi zavodlar ishlab turibdi.

Rangli metallurgiya- asosan import va ikkilamchi xom-ashyo asosida ishlaydi. Rangli metallurgiya korxonalarining joylashuvida energiya resurslari bilanyetarli ta'minlanganligi va xom-ashyoni tashib keltirishning qulayligi bosh omil hisoblanadi. Germaniya alyuminiy quyish bo'yicha G'arbiy Yevropada faqat Norvegiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Sanoat mahsulotlarining taxminan 35 foizini beradi. Asosiy korxonalar Shimoliy Reyn-Vestfaliya. (Essen, Norf, Fyorde), shuningdek Gamburg va Bavariya (Tyoging) yerlari hududlarda joylashgan. [18]

Rangli va qora metallurgiya korxonalari.

Rasm-4



Mashinasozligi va metallni qayta ishlash sanoati- Germaniyadagi eng rivojlangan sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat mashinasozlik sanoatiga jami sanoat mahsulotlari va eksportning yarmiga yaqini to'g'ri keladi. Shu bilan birga jami mashinasozlik mahsuloti eksport hajmida 40 foizni tashkil etadi. Mamlakatda mashinasozlikning Myunxen, Nyurnberg, Erlangen bilan

Mangeym, Berlin, Leypsig, Gamburg kabi yirik markazlari shakllangan. Mamlakat federalyerlar orasida Baden-Vyurtenberg va Shimoliy Reyn-Vestfaliyada umumiy mashinasozlik ishlab chiqarishi rivojlangan. Elektrotexnika tarmoqlarining rivojlanishida Bavariyayetakchilik qiladi. Shuningdek mamlakatda mashinasozlikning Myunxen (Siemens konserni), Berlin, Shtutgard, Kyoln, Gamburg, Frankfurt-Mayn kabi yirik markazlari ishlab turibdi. Germaniya avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Yaponiya va AQShdan keyinda turadi. Avtomobillarni «Folksvagen», «Mersedes Bens», «BMV», «Ford Verke», «Opel» firmalari ishlab chiqaradi. Mamlakatda mashinasozlikning Vofsburg, Shtutgart, Kyoln, Ryusselsxaym, Myunxen kabi yirik markazlari shakllangan. [15]

Mamlakatda dengiz kemasozligining asosiy markazlari Kil, Gamburg, Bremen, Emden, Rostok daryo kemasozligining markazi Duysburg hisoblanadi. Asosiy dengiz portlari: Gamburg, Bremen, Bremerxafen, Vilgelmsxafen. Suv yo'llari uzunligi — 7467 km..

ICE tez yurar poezdi, temir yo'l uzunligi — 91,4 ming km,

Mamlakatda mavjud xom-ashyo hisobida ishlab chiqarilgan mahsulot turlari

Rasm-5



Germaniya transporti yo'llarining zichligi bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Yevropa kengashi bo'yicha sheriklari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarning jadalligi va Yevropaning markazida joylashganligi bilan

bog'liq holda transportning barcha turi rivojlangan. Mamlakatning asosiy transport turini temir yo'llar tashkil etadi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 44 ming km atrofida bo'lib, shundan jami temir yo'llarning qismi elektrlashtirilgan. Jami tashiladigan yuk aylanmasida **avtomobil transportining** hissassi 60 foizni, temir yo'l transportiga 20 foiz, daryo transportiga 15 foiz to'g'ri keladi. Yo'lovchi tashish aylanmasida esa avtomobil transportining hissassi yanada yuqori ya'ni 90 foizni tashkil etadi. Umumiy avtomobil yo'llari uzunligi — 496,6 ming km. Oliy darajadagi avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 12 ming km dan ortiq.

Avtomobil yo'llari

Rasm-6



Germaniyada ichki suv yo'llarining uzunligi 7 ming km atrofida. Mamlakatning Reyn daryosidagi xalqaro magistral suv yo'lida ko'plab yirik portlar joylashgan bo'lib, unda yillik yuk aylanmasi 50 mln tonna bo'lgan dunyodagi eng yirik daryo porti-Duysburg joylashgan.[18]

Germaniya kemalarda konteynerlarda yuk tashish tonnasi bo'yicha dunyoda AQSH, Panama va Tayvandan so'ng 4-chi o'rinda turadi. Germaniya dengiz portlari yuk aylanmasi hajmiga ko'ra Yevropa mamlakatlarining yirik portlaridan keyinda turadi. Mamlakatda Gamburg, Vilgelmsxafen, shuningdek Bremen, Emden, Rostok kabi yirik portlar ishlab turibdi. [15]

Suv transporti

Rasm-7



Havo transporti. Mamlakat tashqi aloqalarida dengiz transporti qatorida havo transporti ham muhim ahamiyatga ega. Barcha yirik yarmarkalar markazida aeroportlar mavjud. Germaniyada jami 16 ta xalqaro aeraportlar bo'lib, shu bilan birgalikda Frankfurt aeroporti yuk aylanmasi bo'yicha Yevropada birinchi, yo'lovchitashish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Eng katta aeroporti — Frankfurtmayn shahrida. Boshqa yirik aeroportlari: Berlin — Tegel, Berlin — Shenefeld, Bremen, Gamburg, Gannover, Drezden, Dyusseldorf, Kyoln Bonn, Leypsig, Myunxen, Nyurnberg, Saarbryukken va Shtutgart.[15]

Havo transporti.

Rasm-8



Kimyo sanoati. Shimoliy Reyn-Vestfaliyayeri Germaniya kimyo sanoatining bosh rayoni hisoblanadi. (jami kimyo sanoati mahsulotining 40 foizi to'g'ri keladi). Mamlakatda kimyo sanoatining Leverkusen (Vauyer konserni), Kyoln, Dormagen, Frankfurt-Mayn (Hoechst konserni), Lyudvigxafen (BASF) kabi yirik markazlari shakllangan. Sharqiyerlarda esa (Germaniya birlashuvidan keyin) kimyo sanoati chuqur iqtisodiy krizis holatiga tushib qoldi. Asosan

buyurda kimyoviy o'g'itlar, dori-darmonlar, plastmassa buyumlari va suniy kauchuk ishlab chiqaradi. [18]

Kimyo sanoati.

Rasm-9




Yengil sanoat. Asosan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Yengil sanoat Germaniyada oxirgi yillarda o'sish surati pasaygan bo'lsada yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz tufayli ishlab turgan korxonalarga xom-ashyoyetkazib berish pasaydi. Natijada bu korxonalarda, ya'ni qadimgi to'qimachilik markazlari va Rur atrofidagi rayonlarda ("Bergeshis Land", Krefeld, Myunsterland) va janubda (shimoliy sharqiy Bavariya, Augsburg) ishlab chiqarish ko'rsatkichi pasaydi. [18]

Yengil sanoatning asosiy markazlari mamlakatning g'arbida joylashgan shaharlar hisoblanadi. Rur sanoat rayoni, Germaniyaning janubi va sharqi, Berlin.

Yengil sanoat korxonalrining faoliyat ko'rsatish jarayoni

Rasm-10



Oziq-ovqat sanoati. Turli ichimliklar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari sut va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish ham mavjud.

Oziq-ovqat sanoati Germaniyada asosiy tarmoqlaridan biri hisblanadi. Oziq-ovqat sanoati, Germaniyaning yirik besh tarmoqlari avtomobilsozlik, elektrenergetika, mashinasozlik, kimyo sanoati qatoridan o‘rin olgan. 2012 yil oziq-ovqat sanoati aylanmasi 150 mlrdyevroni tashkil etgan. Mamlakatda 5900 ta korxona va unda 544000 kishi ishlab turibdi. Oziq ovqat sanoati korxonalari uchun kichik va o‘rta biznes korxonalari xarakterlidir. Bu korxonalarda ya’ni 75 foizida 100 kishidan iborat ishchilar faoliyat olib boradi. Oziq ovqat sanoatida go’shtni qayta ishlash, sutni qayta ishlash, qandolat va non va non mahsulotlari va alkohol ichimliklari ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari sabzovot mahsulotlarini qayta ishlash, mineral suv va salqin ichimliklar ishlab chiqarish tarmoqlari asosiy o‘rindadir.

2012 yil oziq ovqat sanoati aylanmasining o‘shish ko‘rsatkichi 1.2 foizni tashkil etdi. Bu eksport hisobiga amalga oshirildi. Mahsulotning katta qismi 84 foizi umumyevropa bozorlariga, 16 foizi Yevropa ittifoqidan tashqariga, asosan Rossiya, AQSh, Shveysariyaga eksport qilinadi.[17]

Germaniya oziq ovqat mahsulotlari xorijda besh jihatiga asosan muvofiqiyatga erishgan- yuqori sifati, mahsulotning xavsizligi, qulay narxdaligi, ishonchliligi va ta’min sifati. “Made in Germany” oziq ovqat sifat ko‘rsatkichi, qaysiki butun dunyoga mashxurdir.

Oziq ovqat tarmoqlari, vino ishlab chiqarish, pivo ishlab chiqarish va boshqalar asosan mamlakat qishloq xo‘jaligidayetkazib beriladigan xom ashyo hisobiga ishlaydi. Germaniyada to‘rt mingdan ziyod pivoning turli sortlari ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarilgan pivoning uchdan bir qismi eksport qilinadi. Vino ishlab chiqarish Reynda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Mozelya va reyn uzumlaridan tayyorlangan vinolar xorijiy mamlakatlarda mashxurdir. Mozelyani shu sababli “vino yo‘li” deb atashadi.[18]

Oziq-ovqat sanoati

Rasm-11



Qishloq xo'jaligi. Germaniya qishloq xo'jaligida o'z hududining 50 foizidan foydalanadi. Biroq ushbu tarmoqning mamlakat yalpi ichki mahsulotlar hissasida faqat 1 foizni tashkil etadi. (mahsulot qiymati bo'yicha) mamlakat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan jami mahsulotning 60 foizini chorvachilik sohasi beradi. Mamlakat chorvachiligining etakchi sohalari yirik qoramolchilik va cho'chqachilik sohalari hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 60 foizini mana shu chorvachilik beradi.

Germaniyada qishloq xo'jaligiga yaroqli 36 mln. gayer bor. U mo'l-ko'l yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligining asosiy mahsulotlari: bug'doy, arpa, qand lavlagi, kartoshka, shuningdek uzum, meva, sabzavot va boshqalar. Chorvachilikda mol go'shti, cho'chqa go'shti, tovuq go'shti va sut etishtiriladi.[12]

Mamlakat qishloq xo'jaligining dexqonchilik va chorvachiligi

Rasm-12



Hududining qariyb uchdan bir qismi (10,7 mln.ga) o'rmon bilan qoplangan. Mamlakatda har yili salkam 30—40 mln. kub metr yog'och

tayyorlanadi, bu hajm ichki ehtiyojning uchdan ikki qismini ko'paydi. Olmoniya yog'och eksport qiladigan eng yirik davlatlardan biridir. Shimoliy va Boltiq dengizlarida, Grenlandiya oroli atroflarida baliq ovlanadi. Germaniyada ekin maydonlar mamlakat maydonining 35 foizini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlariga nisbatan yem-xashak ekin maydonlar katta maydonlarni egallaydi. Shunga qaramay mamlakatda yem-xashak ekinlar katta miqdorda chetdan import qilinadi. Donli ekinlar mamlakat g'arbiy yerlarida haydaladigan yerlarning 5/3 qismini, sharqda esa 3/2 qismini egallaydi.[5]


Qishloq xo'jaligida bug'doy asosiy oziq-ovqat ekini hisoblanadi, lekin Germaniya javdar, sulii, arpa etishtirishda Yevropada alohida ajralib turadi.

Pivo ishlab chiqarish uchun arpaning bir qancha sortlari yetishtiriladi. Germaniya o'zini donli oziq-ovqat ekinlari bilan to'la ta'minlaydi.[17]

Bovariyada katta maydonlarda xmel etishtiriladi. Bundan tashqari mamlakatda kartoshkachilik va qand lavlagiyetishtirish muhim o'rin tutadi. Reyn daryosi va uning irmoqlari bo'ylab (mamlakatning g'arbiy rayonlarida) uzumchilik va bog'dorchilik yo'lga qo'yilgan.


Germaniia Federativ Respublikasi iqtisodiyoti tuzulmasi

Chizma-1



GFR sanoati va qishloq xo'jaligi kartasi

Rasm-12



2.2. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING MINTAQALARARO FARQI

Germaniya federativ tuzilishga ega mamlakat bo`lib, u 16 ta teng huquqli hududiy birliklardan tashkil topgan – ularyer deb ataladi. Buyerlarni yirik 3 guruhga ajratish mumkin

Ular quyidagilar:

1. Shimoliy guruh
2. Janubiy guruh
3. Sharqiy guruh

Bu 3 ta yirik guruh 16 ta federalyerlikdan iborat. Ular quyidagilar:



1. Bavariya
2. Baden-vyurtemberg
3. Berlin
4. Brandenburg
5. Bremen
6. Gamburg
7. Gessen
8. Meklenburg
9. Quyi saksoniya
10. Shimoliy reyn-vestfaliya
11. Reynland-pfalts
12. Saar
13. Saksoniya
14. Saksoniya-angalt
15. Shlezvig-Golshteyn
16. Tyuringiya

Ular bir biridan xo‘jalikning maxsuslashtirilganligi, sanoatning yangi va eski tarmoqlarining bog‘liqligi(bu esa bugun rayonlarning raqobatdoshligi va rivojlanish dinamikasini aniqlashning muxim faktoridir), ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kompleksi bo‘yicha ajralib turadi.[18]

GFRning shimoli ichki juda turlidir.Bu guruhga- Gamburg, Bremen, Shlezvig-Golshteyn, Quyi saksoniya, Shimoliy reyn-vestfaliya shaharlari kiradi.

Buyerda ko‘mir-metallurgiyali Rur joylashgan. Unda yangi tarmoqlar sust rivojlangan, eskisi tarmoqlar esa inqiroz holatda. Gamburg shahrida “dengiz” tarmog‘i 80 foizni tashkil etadi. Ular barchasi kemasozlikkonyukturasiga bog‘liq, u esa anchadan beri inqirozli, chunki Yaponiya va Janubiy Koreya dunyo kemasozligidayetakchi monopollikka ega.

GRF ning janubi, yangi tarmoqlarning mujaasamligidir.Bu guruhga - Bavariya,Baden-vyurtemberg , Gessen, Reynland-pfalts, Saar

Mamlakatntng bosh konsernlarining ishlab chiqarish bazasi va shtab kvartiralari shu guruhda joylashgan. Shtutgartda “Daymler-Kraysler” , “Simens”, BMV”, BASF, Bavariyada-VPK va boshqa kompaniyalar mavjud. Tumanning yirikilmiy-tadqiqot va o‘quv bazasi ham muhimdir. Janubda universitetlarning ko‘p soni joylashgan.

Va nixoyat Janubning siyosiy omillarining ustunligi ham o‘zgarib bormoqda. Aholining ko‘pchiligi XDS va XSSga ovoz berishadi. Bunda Federal hukumat ham janubga kattayordam ko‘rsatadi.[15]

GFRning sharqi (“yangiyerlar”)-tarixdagi noyob eksperiment-sotsialistik xo‘jalikni kapitalistik mamlakat tomonidan qamrab olishi,barcha tashqi aloqalarning keskin qayta yo‘naltirildi. YaIM hajmi bo‘yicha “yangiyerlar” bir necha marta “Eskiyerlarga”dan qolib ketishi.Bu guruhga- Meklenburg, Berlin, Brandenburg, Saksoniya, Tyuringiya, Saksoniya-angalt.

Poytaxtni sekin asta Bonndan Berliga ko‘chirish-sharqiy rayonlarning xo‘jaligini qayta tashkil etishda yangi impuls tuzish vazifasini bajaradi.

“Eskiyerlarning” Shimoli- bu “shahar-yer” Gamburg va Bremen, Shlezvig-Goshteyn, Quyi Saksoniya va Shimoliy Reyn-Vestfaliya.

Geografik jihatdan butun Shimol-bu Shimoliy-Germaniya pastekisligi, qishloq xo‘jaligining muhim rayoni uchun yaxshi baza. “Bug‘doy poyasi” Shlezvig-Golshteyndan Keln “buxtasigacha” cho‘zilgan. Gamburgdan sharqroqda Lyuneburg quruqligijoylashgan.

Germaniyaning 16 tayeriga umumiy tavsif

BERLIN.



Poytaxti: Berlin

Maydoni: 887,70

Aholisi: 3292

Aholi zichligi: 3709

1948 yilgi blokada va 1961 yilgi devorning qurilishi Berlinni bo‘lingan shaharga aylantirdi. II jahon urushidan keyin Berlin shahri ikkiga ajralgan Yevropa ta‘sirida qoldi. 1989 yil 9 noyabrda Berlin devori quladi. 1990 yil 3 oktyabrdan Berlin bir butunlikka ega bo‘di. U bugun sanoat, maishiy xizmat, ko‘rgazmalar va konferensiyalar markazi bo‘lgan shahar-davlatdir. U Germaniyaning poytaxti.[18]

BAVARIYA.



Poytaxti: Myunxen

Maydoni: 70553 kv. km

Aholisi: 12397

Aholi zichligi:175,73

Tarixiy makon bo`lib, unda tili, an`analari va hayotga munosabatlari bilan bir-biriga mutlaqo o`xshamaydigan uchta yirik aholi guruhlari yashaydi. Hududning janubi va sharqida tub bavariyaliklar; shimol va shimoli-sharqda frankonchilar; janubi-g`arbda bavar shvablari istiqomat qiladi. Bu xilma-xillik nafaqat poytaxt Myunxen, balki hududning barcha rayonlarida boqiy madaniy hayotning shakllanishiga olib kelgan. Bavariya sobiq qishloq xo`jaligi hududi bo`lib, bugun u Germaniyaning turistik ro`yhatida 1- o`rinda turadi. Bugungi Bavariyaning Myunhen va Nyurenberg-Erlangen-Fyurt rayonlari sanoat hududlari hisoblanadi. Bavariyaning maydoni Germaniyaning eng kattayerlaridan biri. [18]

BADEN-WYURTEMBERG.



Poytaxti:Shtutgart

Maydoni: 35751 kv. km

Aholisi: 10486

Aholizichligi:293,32

Baden-Vyurtemberg1952 yil 25-maydaVyurtemberg –Gogentsolleron, Vyurtemberg – BadenvaBaden bir butun ma`muriy birlik sifatida tashkil topdi. U maydonining kattaligi bo`yicha GFRda 3-o`rinda turadi. Baden-Vyurtemberg yuksak texnologiyalari, avtomobil sanoati vino ishlab chaqarish bilan mashxur. Baden-Vyurtemberg madaniyat markazi ham bo`lib, unda ko`plab ta`lim maskanlari joylashgan va uning poytaxti Shtutgart o`zining baleti bilan dunyoga tanilgan. Shu bilan birga Baden-Vyurtemberg turistikhudud hamdir. Mineral manbalarga boy sog`lomlashtirish maskanlari,

go`zal shaharlari bilan Baden-Vyurtemberg GFRning tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi. [18]

BRANDENBURG.



Poytaxti:Potsdam

Maydoni: 29483kv. km

Aholisi:2455

Aholizichligi:83,29

Brandenburg sobiq Prussiyaning yuragi hisoblangan. Shimoliy Germaniya hududida joylashgan Brandenburg qora tuproq, qumloqyer va asosan o`rmonlardan tashkil topgan. Uning nufuzli shaharlari: poytaxti Potsdam, Oder bo`yida Frankfurt, Brandenburg, Kotbus. Hududdagi arxitektura yodgorliklari va turki madaniy tadbirlar turistlarni o`ziga jalb qiladi. Shpevald va ko`l landshtaflari taniqli bo`lib, dam olish joylari sifatida foydalaniladi. Brandenburg iqtisodiyoti bir tomondan an`anaviy ko`mir qazib olish, po`lat quyush va kimyo sanoati bo`lsa, ikkinchi tomondan buyerda qog`oz va nashr sanoati, hamda zamonaviy tez o`sib borayo`tgan tarmoqlar: kommunikatsion texnologiya va ekologik toza texnologiyalar sektorlaridan tashkil topgan. Asosiy hamkorlik Polsha bilan olib boriladi. Turli sohalarda o`zaro hamkorlik o`rnatish va hamkolkdagi loyihalarni tashkil etish maqsadida yevrohududlar shakllantirilgan.[18]

QUYI SAKSONIYA.



Poytaxti:Gannover

Maydoni: 47612 kv. km

Aholisi: 7777

Aholizichligi: 163,36

Bu GFR va sobiq GDR o'rtasidagi 550 km. uzunlikdagi hudud bo'lib, uning poytaxti Gannover shahri. Unda eng yirik xususiy kompaniyalardan biri «Folksvagen AG» joylashgan. Huduning katta qismini Elba Emson daryolari, Garts va Shimoliy dengiz oralig'idagi landshtaflar egallagan. Quyi Saksoniyada ilmiy tadqiqotlar uzoq an'anviy bo'lib, ular katta tarixga ega Braunshveyg, Klaustale-Tsellerfelde va Gyottingen universitetlari hamda quyosh energiyasini o'rganuvchi zamonaviy muassasalardir.[10]

SAKSONIYA



Poytaxti: Drezden

Maydoni: 18419kv. km

Aholisi: 4056

Aholizichligi: 220,24

Nafaqat harbiy quvvati, balki rivojlangan savdo va xo'jalik, madaniy boyliklari bilan mashhurdir. Poytaxti Drezden, Leyptsig va Xemnits shaharlari go'zalligi sizni maftun etadi. XIX va XX asrlarda Saksoniya sanoat korxonalari Germaniyada birinchilardan bo'lib industrlashtishga qadam qo'ydi. Bugungi kunda Saksoniya rivojlangan iqtisodiyot va eng aholi zich joylashgan hududdir.

BREMEN.



Poytaxti: Drezden

Maydoni: 419,24 kv. km

Aholisi:650

Aholizichligi:1552,48

Dengiz kemasozlik, savdo va portlar asosida birlashgan, Bremen va Bremerxafendan tashkil topgan hududiy birlik. Bremen – nemis dengiz portining eng janubiysi bo`lsa, Bremerxafen Yevropada eng yirik konteyner kompleks terminaliga ega. Bremen portlari eng zamonaviy texnikaga ega bo`lib, xizmat ko`rsatish tezligi bo`yicha dunyoda oldingi o`rinlarda turadi. Bremenda avtomobilsozlik, aviatsiya va kosmos sanoat, elektronika va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda turli boshqa sohalaridagi innovatsion korxonalar mavjud. Bremen shimoliy-g`arbiy Germaniyada ilmiy tadqiqotlar va konstruktorlik ishlari bo`yicha ilg`or texnologiyalarning markazi hisoblanadi. Bu borada universitet, boshqa oily ta`lim muassasalari va Alfred Vegener nomidagi dengiz tatqiqotlari instituti o`z faoliyatlarini olib boradi. Bremernda madaniyat va san`at ko`p sonli muzeylar va institutlar hisobiga rivojlanmoqda.

GAMBURG.



Poytaxti:Gamburg

Maydoni: 755,16 kv. km

Aholisi:1706

Aholizichligi:2260,05

Germaniyaning dunyoga chiqish darvozasi hisoblanadi. U mamlakatdagi eng katta port va eng muhim tashqi savdo maydonidir. Gamburg OAV markazi bo`lib, unda nemis press agentligi shtab kvartirasi, G`abiy Germaniyaning radiosi, ko`p sonli xususiy teleradiokompaniyalar, nufuzli gazeta va jurnallarning nashriyotlari joylashgan. Bundan tashqari shahar xalqaro yarmarkalar va kongreslar vatani hamdir. Shaharda dunyoda eng ko`p, 92 ta konsullik joylashgan. Myuzikxollar, ko`p sonli muzeylar, ko`gazmalar,

konserthar va 35 ta teatr Gamburgni madaniy markazga aylantiradi va uzoq o`lkalarni o`ziga jalb etadi. Gamburgni o`rtasiga oqib kiruvchi Alster daryosi va ko`p sonli hiyobonlar shaharni dam olish imkoniyatlariga boy yashil hududga aylantiradi. Gamburg shahar davlat bo`lib, uning parlamenti Shahar majlisi deb ataladi. Burgomistr boshchiligidagi Senat hudud hukumatini hisoblanadi. [17]

GESSEN.



Poytaxti:Viesbaden

Maydoni: 21114kv. km

Aholisi:5971

Aholizichligi:282,82

Mamlakatning yirik iqtisodiyot hududlaridan hisoblanadi. Uning xo`jaligi yadrosi Reyn-Mayn hududi va eng yirik shahri Mayn bo`yida Frankfurt. Taraqqiyotiga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatuvchi Reyn-Mayn aeroporti aviotashishlar bo`yicha mintaqada lider markazlardan biridir. Frankfurt mamlakatning federal banki shtab kvartirasi va 400 ga yaqin boshqa moliyaviy institutlar joylashgan bo`lib, bu uni Yevropa mintaqasida bank tarmoqlarining yetakchi markaziga aylantirdi. Gessenda 12 ta oliy ta`lim muassasalari va 3 ta davlat teatri joylashgan. Poytaxti Wiesbaden kongresslar va kurortlar shahridir. Gessen eng o`rmonli hudud bo`lib, uning yer maydonlarining yarmisi o`rmonzorlardan tashkil topgan va bu turistlarni o`ziga jalb qoladi. Gessenning shimolida joylashgan Kassel shahri davlat badiiy kolleksiyalari bilan butun dunyoga mashhur.[13]

MEKLENBURG.



Poytaxti:Shverin

Maydoni: 23190 kv. km

Aholisi:1609

Aholizichligi:69,42

Boltiq dengizi bo'yida joylashgan, iqtisodiyotining asosini qashloq xo'jaligi tashkil etadi. Rostokda kemasozlik rivojlangan bo'sa, Lyubeksdan to Ryugen orollarigacha dam olish joylari cho'zilgan. Ular Gemaniyaning yirik dam olish hududlariga kiradi. 650ta ko'l va ko'plab daryolarni o'z ichiga olgan bu hududda qushlar uchun tahminan 40 km. kenglikdagi maydon yastanib yotibdi. Yirik shaharlari poytaxti Shverin, Noybranderburg va Rostok.

REYNLAND-PFALTS



Poytaxti:Maynts

Maydoni: 19854 kv. km

Aholisi:3989

Aholizichligi: 200,96

II jahon urushidan keying taraqqiyot natijasida GFRning eng rivojlangan to'rt hududining biriga aylandi. Unda Germaniya tashqi savdosining dinamik markazi shakllangan. Bunday rivojlanishga ishlab chiqarish, transport, maktab va oliy ta'limning rivojlantirilishi hamda yangi texnologiyalarning ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbqiq etilishi sabab bo'ldi. Reynland-Pfalts vinochilikka asoslangan rayonlari va 2000 yillik boy madaniy tarixga ega.Poytaxti Maynts , shaharlari Vorms, Shpeyer, Koblents va Trir.[8]

SHIMOLIY REYN – VESTFALIYA



Poytaxti:Dyusseldorfom

Maydoni: 34092kv. km

Aholisi:17538

Aholizichligi:514,44

Federalyerlar ichida aholisi soninig ko`pligi bilan etakchi o`rinda turadi. Hududdagi 450dan ortiq kichik va o`rta hamda ko`plab yirik korxonalar yalpi ichki mahsulotning to`rttdan bir qismi ishlab chiqariladi. Ilgari iqtisodiyotning asosini ko`mir qazib olish va po`lat quyish tashkil etgan bo`lsa, endilikda kimyo sanoati, turli yuqori texnologiya tarmoqlari va xizmat ko`rsatish oldingi o`rinda turadi. Biznesning nazariy va amaliy fanlar bilan bog`liq holda olib borilgani taraqqiyotning asosi bo`ldi. Shimoliy Reyn – Vestfaliyada 49ta oliy ta`lim muassasalarida 400 mingdan ortiq yoshlar bilim oladi. Poytaxti Dyusseldorfom muhim madaniy markaz bo`lib, unda 23 ta simfonik orkestr, 72 ta teatr, 200 ta muzey joylashgan.[18]

SAAR



Poytaxti:Saarbryukken

Maydoni: 2565,78 kv. km

Aholisi:999

Aholizichligi: 389,15

Saarning birlashgan Yevropa tomon ildam qadamlar bilan yurishi uning iqtisodiyotida namoyon bo`lmoqda. An`anaviy tog`-kon sanoati bilan birga

zamonaviy tarmoqlar rivojlanmoqda. Sanoatni taraqqiy ettirishga qaratilgan ilmiy-tatqiqot muassasalari va yaxshi rivojlangan texnologik infrastruktura bugunda kelajak bozoriga tayyorlanish imkonini bermokda. Uncha katta bo`lmagan Saarda ijtimoiy jihatlariga va atrof-muhitga e`tibor kuchli, buyerda eng ko`p inshooatlar bu bolalar bog`chalari va quyosh energiyasi moslamalari bo`lib, bu ko`rsatkich GFRning boshqa hech qayerida kuzatilmaydi. Poytaxti Saarbryukken shahri.Hudud sanoat tarixiy yodgorliklari va o`rmonlarga boy.[4]

SAKSONIYA – ANGALT



Poytaxti:Magdeburg

Maydoni: 20449kv. km

Aholisi:2287

Aholizichligi:111,84

Elba va Zal daryolari bo`yida joylashgan yer bo`lib, uning iqtisodiy strukturasini ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish tashkil etadi. Poytaxti Magdeburg. Saksoniya – Angaltdagi boy qazilma konlari xom-ashyo va kimyo sanoatini rivojlanishiga sabab bo`ldi. Shu bois bu hudud industrlashtirish eng erta boshlangan hudud hisoblanadi. Kimyo sanoati, og`ir mashinasozlik, sanoat uskunalari ishlab chiqarish, motorsozlik, po`lat vayengil metallardan konstruksiyalar tayyorlash, temir yo`l transporti ishlab chiqarish hududning iqtisodiyot tarmoqlarini tashkil etadi. Bundan tashqari ekologik toza texnologiyalar sanoati, raqobatbardosh qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ham ishlab chiqiladi.[12]

SHLEZVIG-GOLSHTEYN



Poytaxti:Kill

Maydoni: 15799 kv. km

Aholisi:2800

Aholizichligi: 177,23

Shimoliy va Boltiq dengizi oralig`da joylashgan bo`lib, Yevropa Ittifoqi, Skandinaviya va boshqa Boltiqbo`yi davlatlari o`rtasida bog`lovchi hudud hisoblanadi. Iqtisodiy, atrof-muhitni himoya qilish, fan va madaniyat sohasidagi xalqaro hamkorlik taraqqiyotga keng yo`l ochmoqda. Poytaxt Kil shahrida xalqaro yelkanli sport musobaqalari turniri o`tkaziladi. Lyubeks shahri YUNESKOning Butunjahon madaniyat yodgorliklari ro`yxatiga kiritilgan. Yoz oylarida Shimoliy va Boltiq dengizlari oralig`idagi yuzlab kilometr maydon va 140 dan ortiq ko`llar dam oluvchilar uchun chinakam jannatga aylanadi.[18]

TYURINGIYA.



Poytaxti:Erfurt

Maydoni: 16172 kv. km

Aholisi:2188

Aholizichligi: 135,33

Uni Germaniyaning“yashil yuragi” deb atashadi. Bunga sabab hammaga mashhur dam olish joylari bo`lgan Tyuring o`rmonlari, Janubiy Garts, Kyufxoyzer va Ryon tog`lari, Zale daryosi vodiysidir. Tyuringiya qadimda 7 ta kichik davlatlar va sobiq prussiya hududlaridan tashkil topgan. U 5 ta federal birliklar bilan chegaradosh va shuning uchun Germaniya transport tizimi

o'tgan markazdir. Poytaxti Erfurt, klassiklar shahri Veymar, universitet shahri Yenu, sharqiy Tyuringiya markazi Geru va Gotu, Altenburg, Meyningen shaharlari unga ko'rk bag'ishlab turadi. Tyuringiyada tarixiy joylar juda ko'p.[10]

Germaniyaning yirik 116 ta teng huquqli hududiy birliklari

Jadval-4

№	YER	POYTA
1.	Baden-Vyurtemberg	Shtutg
2.	Bavariya	Myunx
3.	Berlin	Berlin
4.	Brandenburg	Potsda
5.	Bremen	Breme
6.	Gamburg	Gambu
7.	Gessen	Visbad
8.	Meklenburg	Shver
9.	QuyiSaksoniya	Gannov
10.	Shimoliy Reyn - Vestfaliya	Dyussele
11.	Reynland-Pfalts	Mayn
12.	Saar	Saarbryu
13.	Mustaqil Saksoniya davlati	Drezde
14.	Saksoniya-Anxalt	Magdeb
15.	Shlezvig-Golshteyn	Kil
16.	MustaqilTyuringiya davlati	Erfur

Germaniyaning eng katta shaharlari

Jadval-5

№	Shahar	Maydoni km²	Aholisi	E./km²
1	Munchen	310,43	1.288.065	4.149
2	Berlin	891,75	3.389.579	3.801
3	Herne	51,41	171.325	3.333
4	Stuttgart	207,36	591.114	2.848
5	Oberhausen	77,04	219.147	2.845
6	Essen	210,37	588.084	2.802
7	Nurnberg	186,38	495.546	2.657
8	Dusseldorf	217,00	574.066	2.647
9	Bochum	154,40	382.087	2.628
10	Gelsenkirchen	104,85	272.445	2.598
11	Frankfurt am Main	248,31	655.079	2.595
12	Hannover	204,01	520.100	2.530
13	Koln	405,15	965.954	2.384
14	Hamburg	755,16	1.737.000	2.300
15	Mannheim	144,96	324.940	2.241
16	Bonn	141,22	313.605	2.220
17	Duisburg	232,82	503.664	2.164
18	Wuppertal	168,41	363.502	2.150
19	Dortmund	280,30	587.272	2.095
20	Kiel	118,40	229.850	1.941
21	Mainz	97,75	186.061	1.903
22	Augsburg	146,78	261.208	1.880
23	Mulheiman der Ruhr	91,26	170.327	1.866
24	Kassel	106,77	198.503	1.820
25	Augsburg	146,93	260.407	1.772
26	Halle (Saale)	135,01	238.497	1.767
27	Krefeld	137,68	238.270	1.731
28	Leipzig	297,62	498.491	1.675
29	Bremen	326,72	544.746	1.667
30	Karlsruhe	173,46	283.227	1.633
31	Aachen	160,83	256.486	1.596
32	Monchengladbach	170,43	266.684	1.565

33	Castrop-Rauxel	51,66	78.619	1.514
34	Dresden	328,30	487.421	1.480
35	Wurzburg	87,65	129.050	1.470
36	Freiburg imBreisgau	153,06	213.998	1.398
37	Osnabruck	119,80	164.773	1.375
38	Wiesbaden	203,90	271.351	1.331
39	Braunschweig	192,09	245.872	1.280
40	Bielefeld	257,80	329.692	1.278
41	Hagen	160,36	198.780	1.239
42	Magdeburg	200,94	226.675	1.128
43	Chemnitz	220,85	248.365	1.125
44	Rostock	181,39	198.993	1.097
45	Saarbrucken	167,07	180.269	1.079
46	Koblenz	105,02	107.064	1.020
47	Lubeck	214,14	211.874	989
48	Munster(Westfalen)	302,83	269.579	890
49	Hamm	226,26	184.926	817
50	Erfurt	269,17	211.874	752

Buerlar 438 ta okrug (nemischasiga *Kreis*) larga bo`linadi.

2.3. GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASINING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

Germaniya tashqi savdo umumiy hajmi bo'yicha dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. (2013- yilda 1470,3 mlrd AQSH dollari tashkil etdi). Tashqi savdo balansi uzluksiz ravishda ijobiy bo'lib kelmoqda. Tashqi savdoning tovar va geografik tuzilishi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini aks ettiradi. GFR tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlangan mamlakatlar bilan birinchi navbatda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan olib boradi. Ularga tashqi savdo aylanmasining 50 foizi va chetga chiqariladigan kapitalning asosiy qismi to'g'ri keladi. Yevropaning ko'pgina mamlakatlari uchun Germaniya bosh savdo sherik hisoblanadi.[18]

Xalqaro bozorda Germaniya yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlovchi davlat sifatida tan olingan. Eksportining 90 foizdan ortig'ini sanoat mollari tashkil etadi. Germaniyaning barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalardir. Shularning ba'zilari, ayniqsa, xalqaro ixtisoslashish tarmoqlarining korporatsiyalari jahonning eng yirik korporatsiyalari hisoblanadi. Elektronika sanoatida "Siemens" avtomobilsozligida esa- "Daimler-Benz", kimyo sanoatida "Xyoxst", "BASF" kompaniyalarini misol keltirish mumkin.

Mamlakat organik kimyo mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlari eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rin uchun Yaponiya bilan kuchli raqobat olib bormoqda. [8]

Xalqaro hisob-kitobda to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan valyutalar orasida nemis valyutasi oldingi o'rinni egallaydi. Germaniya- jahondagi eng

yirik investorlardan biri. U o'z sarmoyalarini ko'pgina davlatlarning sanoati va xizmat sohasiga sarflanmoqda.

Germaniya avtomobillar va kemalar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda Germaniya mikroelektronika va kompyuterlar, aerokosmik texnikalar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keyinda turadi.[12]

Mamlakat import tarkibida tayyor mahsulotlar hissasi yuqori, biroq xom-ashyo va yoqilg'i hissasi ham ancha yuqori. Hozirgi Germaniya uchun Rossiya neft va tabiiy gaz yetkazib beruvchi asosiy mamlakatdir, Germaniya esa Rossiya uchun mashina va jihozlar, temir yo'l vagonlari, ximikatlar va oziq-ovqat mollari yetkazib beradi.

O'zbekiston davlat mustaqilligi yillarda GFR va boshqa Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlarning ko'p shakllari bo'yicha hamkorlik shartnomalarini imzolagan. Shularning ichida savdo aloqalari ustun ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining jami Tovar aylanmasining 5 foiz hamda importning salkam oltidanbir qismi GFR ga to'g'ri keladi. Yevropa mamlakatlaridan Shveysariya, Buyuk Britaniya va Italiya bilan respublika salmoqli eksport-import aloqalariga ega. Hozirgi kunda Germaniyaning "Siemens" va "Alkatel" kompaniyalari ishtirokida O'zbekistonning telekommunikatsiya tarmoqlari qayta ta'mirlanmoqda.[12]


Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda Yevropada birinchi, jahonda 3-o'rinni egallaydi.

Eksport. Mamlakat eksport salohiyati 803,2 mlrd AQSH dollarni tashkil qiladi. Ichki talabyetakchi bo'lishiga qaramay eksport Germaniya iqtisodiyoti o'sishida qudratli omil bo'lib qolayapti. Germaniyada eksport siyosatiga jiddiy e'tibor qaratilayapti. Shuning uchun ham har uchinchi muhandis, texnik yoki tadbirkor eksportga ishlayapti. Mamlakat eksporti tarkibida sanoat mollari 90 % ga yaqinni tashkil qiladi. Eksportga mamlakat jami sanoat mahsulotining 1/3 qismi jo'natilayapti. Mamlakatning tashqi savdo aylanmasida eksport importdan oshadi. Eksport o'sishi 5-7% tashkil etadi. Eksportning asosiy sohalari-kimyo,

mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika tarmoqlaridir. Ular xalqaro bozorda salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Yuqorida nomlari tilga olingan sohalarning mahsulotlari eksportning yarimidan ziyodini tashkil qiladi. Keyingi yillarda Germaniya eksporti geografiasini borgan sari kengayapti. Mamlakat eksportining kengayishi MDH mamlakatlari evaziga bo‘layapti. Germaniyaning tashqi savdo aloqalari asosan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSh ga qaratilgan. Asosiy hamkorlari AQSH (8,6%), Fransiya (9,7%), Niderlandiya (6,2%), Belgiya (5,5%), Avstriya (5,5%), Ispaniya (4,7%) hisoblanadi. [17]

Eksport hamkorlarining ulushi


Chizma-2



Import. Mamlakatning import salohiyati esa 667,1 mlrd AQSH dollarni tashkil qiladi. Germaniya ko‘p darajada tashqi bozorga bog‘liq mamlakatdir. Import hajmi bo‘yicha u jahon savdosida ikkinchi o‘rinni egallaydi. Import yiliga 4-5 % ga o‘sayapti. Mamlakat savdo balansida saldo 60 mlrd. yevrodan oshadi. Import tarkibida turli xil xom ashyo, yoqilg‘i (neft mahsulotlari, tabiiy gaz), qishloq xo‘jaligi mahsulotlari salmoqli ulushga ega. Asosiy hamkorlari Niderlandiya (11,7%), Fransiya (8,7%), Belgiya (7,6%), Xitoy (5,9%), Italiya (5,5%), AQSH (5,1%), Avstriya (4,3%), Rossiya (4%) hisoblanadi. [17]

Import hamkorlarining ulushi

Chizma-3



Germaniyaning asosiy savdo hamkorlari Yevropa ittifoqi (EI) mamlakatlari hisoblanadi. Ular ulushiga mamlakat eksporti va importining 1/5 to'g'ri keladi.

Germaniya iqtisodiy potentsiali haqida gapirar ekanmiz bugun boshqa rivojlangan mamlakatlar singari uning boshqa davlatlarda joylashgan «ikkinchi iqtisodiyotini» ham hisobga olish lozim. Germaniyaning deyarli barcha yirik monopolistlari transmilliy kompaniyalarga aylanishgan. Ular xorijda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradilar, xizmat ko'rsatish sohalariga egalik qiladilar. Jahonning 50 yirik TMK lari tarkibida Germaniyaning soni 7 tagacha ko'paydi. Germaniya chetga kapital eksport qilishda ham faol ishtirok etmoqda. Kapital eksporti, importdan ustun turadi. Germaniya chetga kapital eksport qilish bo'yicha jahonda beshinchi o'rinni egallaydi. Jahon kapital bozorining 50 % uning ulushiga to'g'ri keladi. Germaniyada asosiy kapital eksport qiluvchilar TMK lar hisoblanishadi. Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga nemis kapitalini investitsiya qilishga qiziqish oshayapti, birinchi navbatda eksport talab sohalar-kimyoy, tog'-kon, yengil, oziq-ovqat sanoati, yo'l-transport va boshqa tarmoqlarga. [9]

Hozirda mamlakatimizda 50 ga yaqin olmon kompaniyalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ulardan Navoiy shahridagi aeroportni barpo etish va rivojlantirishda ko'mak berayotgan "ABB" kompaniyasi, Buxoro viloyatida gips ishlab chiqaruvchi zavodni barpo etgan "Knauf" kompaniyasi, ochiq tekstil fabrikasi "TaxTeks", shisha ishlab chiqaruvchi ochiq zavod yonidagi "Pekon" firmasi, "Simens Toxter BFE", "Klaas" kompaniyasi, Samarqandagi «MAN» kompaniyasi, kabel mahsulotlari uchun simlar ishlab chiqaruvchi «Doyche kabel» kabi hamkorlik tashkilotlari va boshqa ishlab chiqarish muassasalari kelajakda Germaniya-O'zbekiston aloqalari yanada gullab yashnashidan dalolat beradi. [9]

Germaniya tashqi ishlar vaziri Gido Vestervelle. Germaniya Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi doirasida O'zbekiston bilan hamkorlik olib bormoqda va ko'p tomonlama yo'nalishlarda ham (Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va Xalqaro Qizil yarim oy qo'mitasi) faoliyat yuritmoqda. Ikki tomonlama hamkorlik doirasida avvalambor O'zbekistondagi huquqiy islohotlar va fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi Germaniyaning KAS (Konrad Adenauer nomidagi) va FES (Friedrix Ebert nomidagi) siyosiy jamg'armalari, Xalqaro hamkorlik bo'yicha Germaniya jamiyati (GIZ) hamda Huquq sohasi bo'yicha xalqaro hamkorlik jamg'armasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. [3]

O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida savdo-iqtisodiy hamda investitsiyaviy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1993 yil aprelda Germaniya Federativ Respublikasiga tashrif chog'ida ikki davlat o'rtasida iqtisodiy sohada hamkorlikka huquqiy asos yaratuvchi qator hujjatlar, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida armoyinalar qo'yishni amalga oshirish va o'zaro himoya qilishga ko'maklashish to'g'risida Shartnoma" hamda "O'zbekiston Respublikasi hukumatini bilan Germaniya Federativ Respublikasi hukumatini o'rtasida ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkiloti to'g'risida Bitim" imzolandi. 1994 yildan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida Germaniyaning imtiyozlik kredit va grantlarini doirasida amalga oshirilishini rejalashtirilayotgan qo'shimchalar to'g'risida bitim tuzilgan "Moliyaviy va texnik hamkorlik to'g'risida" hukumatlararo bitimlarini imzolangan. Shuningdek, 1999 yil sentyabrda ikki davlat tashqi ishlar vaziri tomonidan "Ikki tomonlama soliqqatortirishning oldini olish to'g'risida Bitim" imzolandi. [4]

Hozirgi vaqtda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar 100 dan ortiq davlatlararo, hukumatlararo, idoralararo bitim va shartnomalar bilan muvofiqlashtirib turiladi. Xususan, ikki tomonlama savdo aloqalari yuqori

saviyada tartibga solingan. Shu jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sheriklik va hamkorlik to‘g‘risida Bitim”ga muvofiq, ikki mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimi (prinsipi) o‘rnatilgan. 2012 yil natijalariga ko‘ra, ikki mamlakatlar o‘rtasida tovar aylanmasi hajmi 2,5 foizga oshib, qariyb 483 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Bunda eksport 50,2 mln. dollarga, import 432,8 mln. dollarga teng bo‘lgan. Bu davrdagi eksport tarkibini xizmatlar (50,9 foiz), qimmatbaho toshlardan yasalgan anjomlar (16,6 foiz), paxta tolasi (13,4 foiz), noorganik kimyo mahsulotlari (6,1 foiz), trikotaj kiyimlar (2,8 foiz), rangli metallar va ulardan yasalgan anjomlar (1,4 foiz), yong‘oqlar (1,2 foiz) tashkil etgan. Import esa mexanik asbob-uskunalar (34,8 foiz), farmasevtika mahsulotlari (10,7 foiz), transport vositalari (10,3 foiz), xizmatlar ko‘rsatish (10,2 foiz), elektr jihozlar (9,5 foiz), optik anjomlar (7,1 foiz), plastmassa (2 foiz) kabi mahsulotlardan iborat bo‘lgan. [18]

Germaniya sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan korxonalar hamda akkreditatsiyadan o‘tgan vakolatxonalar O‘zbekiston Respublikasi hududida germaniyalik investorlar ishtirokida tashkil etilgan 114 ta korxona faoliyat yuritadi. Ulardan 24 tasi 100 foiz xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalardir. Germaniya sarmoyasi ishtirokidagi korxonalaryengil sanoat, tibbiyot va farmasevtika preparatlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jalik mahsulotlariga ishlov berish, yuklar va yo‘lovchilarni tashish, ilmiy tadqiqotlar, avtoservis, savdo kabi qator sohalarda o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda.[6]

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida Germaniya Federativ Respublikasi firma va kompaniyalarining 47 ta vakolatxonasi akkreditatsiyadan o‘tgan.

Germaniya Federativ Respublikasi O'zbekistonda taraqqiyot sohasida keng miqyosda faoliyat olib bormoqda hamda iqtisodiyot va boshqa sohalardagi islohotlarni qo'llab-quvvatlamoqda. Bunga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiradi:

- xususiy sektor va huquqiy tizimni takomillashtirish, kasb-hunar ta'limi, infrastrukturallarning rivojlantirilishi, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, atrof-

muhit muhofazasi, iqtisodni rivojlantirish, turizm, aholi daromadining yaxshilanishi va maktab tizimi.[5]

Ko'p tomonlama hamkorlik bilan bir qatorda - masalan, UNDP, UNHCR, EU, Jahon Banki, YeXTB va OTB – Germaniya federal hukumati 1992 yildan 2010 yilgacha taraqqiyot sohasida ikki tomonlama hamkorlik dasturlari uchun 300 million Yevro mablag' ajratgan, shundan 240 million Yevro atrofida mablag' moliyaviy hamkorlik uchun va taxminan 60 million Yevro mablag' texnik hamkorlik uchun ko'zda tutilgan.

Quyidagi german tashkilotlari O'zbekistonda taraqqiyot sohasidagi hamkorlik doirasida faoliyat yuritadi: GIZ (Xalqaro hamkorlik bo'yicha Germaniya tashkiloti) Toshkent, Nukus, Andijon va Termez shaharlardagi bo'linmalari bilan, KfW (Tiklanish uchun kredit tashkiloti), CIM (Xalqaro migratsiya va taraqqiyot markazi), SES (Faxriy mutaxassislar xizmati), Germaniya Omonat kassalarining xalqaro hamkorlik bo'yicha jamg'armasi, ZEF (Bonn universitetining taraqqiyot yo'nalishidagi tadqiqotlar markazi), DVV (Germaniya Xalq universitetlari uyushmasi), KAS (Konrad Adenauer jamg'armasi) va FES (Friedrix Ebert jamg'armasi). Joylarda o'z xodimlariga ega bo'lgan ushbu tashkilotlar bilan bir qatorda quyidagi tashkilotlarning alohida loyihalari ham mavjud: Sequa, Tyuringen federal o'lkasi savdo va sanoat palatasi, Chegera bilmas shifokorlar, DEG (Germaniya taraqqiyot jamiyati), IRZ (Huquq sohasi bo'yicha xalqaro hamkorlik jamg'armasi) va boshqalar.[10]

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning iqtisodiy taraqqiyotidagi va o'zgarishda bo'lgan hududni barqarorlashtirishdagi geostrategik ahamiyati sababli Germaniya uchun muhim hamkor hisoblanadi. 2009 yil iyul oyida o'tgan so'nggi hukumatlararo muzokaralar davomida ikkala davlat vakillari, jumladan, barqaror iqtisodiy taraqqiyot va sog'liqni saqlash yo'nalishlaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha aniq kelishuvlar qabul qilishdi. [18]

III BOB. JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIIY-IQTISODIY GEOGRAFIYASINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Shaxs ta'lim jarayonining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmatlar sohasi faoliyatida bilish va tajribalarni berishda ishtirok etadi. [7]

Shulardan kelib chiqqan holda maktab o'quvchilariga ta'lim berishda asosiy masalalar belgilanadi:

1. O'quv jarayoni samaraliligini ta'minlovchi pedagogic malakani shakllantirish.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni anglab etishga qaratilgan yangi professional fikrlashni yuzaga keltirish.
3. Pedagogik bilimlar tizimini o'qituvchining faoliyati metodologik asosi sifatida egallab olish.
4. O'qitish texnologiyasi o'quvchilar professional faoliyatiga eng yaqin metodlar sifatida o'zlashtirish. [13]

3.1. JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIIY-IQTISODIY GEOGRAFIYASINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLIGIYANING AHAMIYATI

Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi jamiyat bilan tabiatning o'zaro munosabatlari natijasida kelib chiqqan iqtisodiy- ijtimoiy tizimlarining jahon bo'yicha, shuningdek, uning ayrim regionlari va mamlakatlari bo'yicha shakllanishi va rivojlanishiga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganadi.

Jahon siyosiy kartasi global miqyosdagi bir necha siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan. Shularning ichida birinchi va ikkinchi jahon urushlari va ularning oqibatlari bilan bog'liq holda davlatlarning vujudga kelishi, mustamlaka tizimining emirilishi hamda bir necha o'nlab mustaqil davlatlarning barpo bo'lishi, qo'shilmaslik harakatining rivojlanishi va boshqa jarayonlar e'tiborga loyiqdir. [7]

Jahon siyosiy kartasining shakllanishida 80-yillarning so'ngi va 90-yillarning dastlabki davrida bo'lib o'tgan siyosiy voqealar: ikki nemis davlatining qo'shilib, yagona Germaniya davlatining tashkil etishi, Chexoslovakiya o'rnida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalarining barpo bo'lishi, Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining parchalanib ketishi natijasida suveren Xorvatiya, Sloveniya, Makedoniya, Bosniya va Gersogovina respublikalari hamda Serbiya va Chernogoriya respublikalari federatsiyasining shakllanishi va ayniqsa, Sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida, dastlab Litva, Latviya va Estoniya keyinchalik esa Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalarining mustaqil davlatlar sifatida dunyo siyosiy kartasida o'z o'rinlariga ega bo'lishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo siyosiy kartasidagi davlatlar va mamlakatlar nisbati hamda soniga dastlab 1997-yil 1-iyulda Buyuk Britaniya mustamlakasi Gonkong (Siyangan) ning keyinchalik 1999-yil, dekabr oyida Portugaliya mustamlakasi Makao (Aomin) ning Xitoy Xalq Respublikasi tarkibiga kirishi

2000-yilda esa BMT tomonidan Indoneziya tarkibida bo'lgan Sharqiy Timorga alohida maqom berilishi ham ma'lum ta'sir ko'rsatdi. [18]

Hozirgi vaqtda dunyo siyosiy xaritasida 230 mamlakat mavjud bo'lib, ularning 190 dan ortig'i mustaqil davlatlardir.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga dunyodagi 60 dan ortiq davlatlar kiradi. Ana shu davlatlarni yuqorida keltirilgan va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha to'rt guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhni "yettilik mamlakatlar" tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda qator olim va mutaxassislar "yettilik mamlakatlari" tarkibi to'g'risida o'z fikr muloxazalarini bildirib, ettilikni Ispaniya hisobiga "sakkizlik"ka o'zgartirish vaqti keldi, degan fikrni aytmog'dalar. "Katta sakkizlik mamlakatlari" ning har birida yiliga 500 mlrd.dollardan ortiq yalpi milliy daromad (YaMD) ishlab chiqariladi, aholi jon boshiga esa 24-30 ming dollar va undan ortiq yalpi milliy daromad (YaMD) to'g'ri keladi. Mazkur davlatlarda dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan YaMD ning deyarli 2/3 qismi to'plangan.

Ikkinchi guruhni aholisining soni va YaMD ning umumiy qiymati nisbatan kam bo'lgan, asosan Yevropa mamlakatlari tashkil etadi. [14]

Uchinchi guruhga "ko'chirilgan kapitalizm" mamlakatlari (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika mamlakatlari va boshqalar) kiradi.

To'rtinchi guruhga Sobiq Ittifoq respublikalari hamda Xitoy kiradi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning alohida guruhini "Yangi sanoatlashgan mamlakatlar" (Singapur, Koreya Respublikasi va boshqalar) hamda "Neft eksport qiluvchi mamlakatlar" (Fors ko'rfazidagi arab mamlakatlari, Litva, Bruney va boshqalar) hosil qiladi. Mazkur mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaMD qiymati 10-15 ming dollardan 30 ming dollargacha etadi. [14]

Jahondagi qolgan mamlakatlarning barchasi BMT rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiritadi. Shunday mamlakatlar Osiyo, Afrika, Okeaniya hamda Lotin Amerikasida keng tarqalgan. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy, geografik, demografik xususiyatlari va salohiyatiga ko'ra bir –biridan sezilarli

tarzda farq qiladi. Shuning uchun rivojlanayotgan mamlakatlarni ham ayrim guruhlariga ajratgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhni ulkan tabiiy, aholi va iqtisodiy salohiyatiga ega, YaMD katta bo'lgan "Tayanch mamlakatlar"- Hindiston, Braziliya va Meksika tashkil qiladi. Bu davlatlarga barcha rivojlanayotgan davlatlar jami sanoat mahsulotining yarmi to'g'ri keladi. Lekin aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaMD iqtisodiy rivojlangan davlatlarga xos ko'rsatkichlardan bir necha o'n marta pastdir. [13]

Ikkinchi guruhga iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orsida o'ziga xos bog'lovchi vazifasini bajarayotgan davlatlar kiradi. Ushbu davlatlar geografiyasi juda keng. Argentina, Chili, Vengriya, Chexiya, Polsha, Gabon, Malayziy, Venesuela, Eron, Tailand, Sloveniya shunday davlatlar jumlasidandir.

Rivojlanayotgan davlatlarning uchinchi guruhini iqtisodiy taraqqiyotida ortda qolayotgan davlatlar tashkil etadi. Bunday davlatlarning ko'pchiligida ko'p tabaqali iqtisodiyot hukmronlik qiladi. Gvineya, Senegal, Zimbabve, Kamerun, Gonduras, Boliviya, Ekvador, Paragvay, Filippin ana shunday davlatlar qatoriga kiradi. [11]

Eng ko'p sonli to'rtinchi guruhni BMT ning klassifikatsiyasiga binoan iqtisodiy jixatdan eng past darajada rivojlangan mamlakatlar tashkil etadi. Iqtisodiyotining negizi qishloq xo'jaligidan iborat, ishlovchi sanoati deyarli yo'q darajada bo'lgan ushbu guruh mamlakatlarida aholi jon boshiga 100-300 AQSH dollariga teng YaMD to'g'ri keladi xalos. Mazkur guruh mamlakatlariga Afrikadagi Niger, Chad, Brundi, Xabashiston, Mozambik, Osiyodagi Nepal, Laos, Avg'aniston, Bangladesh, Vetnam, Yevropadagi Albaniya kiradi. [12]

“Sakkizlik davlatlari” ning jahon miqyosidagi iqtisodiy-demografik ko’rsatkichlari bo’yicha o’rni va ahamiyati.

Jadval-5

	Maydoni mln. km ²	Aholi soni mln. kishi	YaIM hajmi, trln. AQSH dollari	Aholi jon boshiga YaIM ming dollar	Eksport-import aloqasi		
					Eksport trln. dollar	Import trln. dollar	Tovar aylanmasi trln. dollar
Jahon bo’yicha	149,0	6678	52,8	8	14010	13910	27920
Shu jumladan “sakkizlik davlatlari”	38,2	867	31,2	36	5448	5989	11437
Ulushi, %	21,1	13,0	59,5	3,9	38,9	43,1	41,0

Jahon mamlakatlari geografiyasi

Jadval-6

Mamlakatlar	Jami mam lakat lar soni	Afrika	Ameri ka	Osiyo	Yevrop a	Avstraliya va Okeaniya	Rossiya Federatsiyasi
Jami mamlakatlar, shundan:	230	57	50	51	45	26	1
1.Respublikalar, jami	152	51	27	33	30	10	1
Shu jumladan: unitary	113	38	21	18	26	10	
Federativ	18	2	5	6	4		

Xalq	7	2		5			
Islom	3	1		2			
Federativ Islom	2	1		1			
Jamaxariya	1	1					
Demokratiya	5	4		1			
Birlashgan	1	1					
Kooperativ	1		1				
2.Monarxiyalar, jami:	29	3		13	12	1	
Shu jumladan: konstitutsiyaviy monarxiya	20	3		6	10	1	
Mutloq monarxiya	4			4			
Mutloq teokratik monarxiya	2			1	1		
Federal monarxiya	3			2	1		
3.Boshqa mustaqil davlatlar, jami:	11	2	3	2		4	
4.Mustamlakalar, jami:	34		20		3	11	
Shu jumladan: unitary	30		18		3	9	
Federativ	3		1			2	
Monarxiya	1		1				
5.Maqomi noma'lum mamlakatlar, jami:	5	1		4			

Loyihalash texnologiyasining ahamiyati. Loyihalash- ta'lim berish jarayoni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim


shartlardan biridir. Loyihalar predmet va uning yo'nalishga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Loyihalarda pedagog tomonidan ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashxisning qo'yilishi bilan yakunlovchi tahliliy faoliyat: oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlar namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonini loyihalash- o'qituvchi kasbiy faoliyatining ko'rinishi bo'lib, o'qituvchining ta'lim jarayonining texnologik tuzilma, uning natijasini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisi bilan tavsiflanadi. [13]

- Loyihalash mahsuli ta'lim jarayonining loyihasi sanaladi. Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari.
- Ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar ya'ni texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhitning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi;
- Ta'limning texnologik vositalari o'quvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;
- Loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi;
- Loyihalash sifati teskari aloqa ya'ni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ko'lami, loyihalash mazmuni, shuningdek barcha omillar samaradorligiga bog'liq.


Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish 5 bosqichdan iborat bo'lib ular quyidagilar:

Jadval-7



O'quv jarayonini loyihalash bosqichlari quyidagilar:

Jadval-8



Mavzuga oid
materiallarni yig'ish

Ta'lim maqsadi va
vazifalarini belgilash

Ta'lim mazmunini
ishlab chiqish

Ta'lim shakli, metod
va vositalarini tanlash

Jahonmamlakatlari ijtimoiy-
iqtisodiy geografiyasini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars
samaralarini jangalga erishiladi. Masalan yangi elektron doskalardan foydalanib dars

o'tilsa o'quvchilar esda saqlab qolishi ortadi. Har bir xonaga kompyuter joylashtarib, dars o'tishda har xil slayd va ko'rgazmali qurollardan, bukletlardan foydalanib dars o'tilsa o'quvchilar qiziqishi ortadi va mavzuni esda saqlab qolish qobiliyati ham kuchayadi. Dars o'tish mobaynida har xil test, krassvord, viktarina savollari, tarqatma materiallardan foydalanilsa o'quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, nutqi ravon bo'ladi.

KRASSVORD

G									
E									
O									
G									
R									
A									
F									
I									
Y									
A									

Savollar:

1. Rivojlangan "yettilik" ka kiruvchi davlat.
2. Afrikadagi davlat poytaxti Addis-Abeba.
3. Kaspiy dengizi chegarasidagi davlat. Poytaxti-Boku.
4. Dunyodagi eng katta orol.
5. Maydoni jixatdan dunyodagi dunyodagi eng katta davlat.
6. Janubiy Amerikadagi davlat. Maydoni 7-o'rinda turadi.
7. Ispaniya, Italiya, Germaniya, Belgiyalar bilan chegaradosh rivojlangan davlat.
8. Qizlarning etikchasi shaklidagi davlat.
9. Osiyoning eng sharqiy davlati.

10. Poytaxti Andorra-la Velya bo'lgan davlat qaysi.

TEST

1. Yaponiyaning davlat tuzumi qanday?

- A) Respublika
- B) Konstitutsion monarxiya
- C) Qirollik
- D) Tekratik monarxiya

2. Afrika materigida nechta mamlakat bor?

- A) 60
- B) 50
- C) 56
- D) 52

3. Dunyoda maydoni eng kichik mamlakatlar qaysilar?

- A) Vatikan, Bruney, Singapur, Belgiya, Jibuti, Estoniya
- B) Vatikan, Andorra, Manako, Lixtenshteyn, San-Marino, Lyuksemburg
- C) Vatikan, Bruney, Jibuti, Ekvatorial Gvineya, Serra-Leone
- D) Vatikan, Manako, Andorra, San-Marino, Gviana, Ganduras.

4. Afrikadagi rivojlangan mamlakat qaysi?

- A) Misr
- B) Jazoir
- C) JAR
- D) Liviya

5. Yer yuzida qancha aholi yashaydi.

- A) 4,5 mlrd.dan ortiq
- B) 5,5 mlrd.dan ortiq
- C) 6,0 mlrd.dan ortiq
- D) 6,5 mlrd.dan ortiq

6. Urbanizatsiya nima ?

- A) Shahar atrofidagi qishloqlarning shaharga qo'shilishi

- B) Shaharlar soni va shahar aholisining ko'payishi
- C) Mamlakat hududida shahar aholisining ko'payishi
- D) Shahar aholasining kamayishi

7. Jahonda yuk tashish bo'yicha qaysi transport turi etakchi o'rinda turadi?

- A) Temir yo'l
- B) Havo yo'li
- C) Dengiz yo'li
- D) Avtomobil yo'li

8. Osiyoda nechta mamlakat bor?

- A) 50
- B) 49
- C) 48
- D) 51

9. Dengiz yo'lida asosan nimalar ko'p tashiladi?

- A) Neft va neft mahsulotlari
- B) Turli xil rudalar
- C) Ko'mir
- D) Don

10. Qoramol soni bo'yicha dunyoda qaysi mamlakat birinchi o'rinni egallaydi?

- A) AQSH
- B) Rossiya
- C) Hindiston
- D) Braziliya

Test javoblari


1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----	----	----	----	----

B	D	B	C	D	B	C	D	A	C	C	D	D	C	A

“Klaster” metodi deganda biz ma’lumotlarni yig’ish emas, balki yoyishini tushunamiz. Klaster bilan tushuntirishda biz faqat bitta mavzu emas balki bir necha mavzularni qamrab oladi ya’ni buni rivojlangan mamlakatlar misolida ko’radigan bo’lsak: [13]

“Klaster” metodi

Jadval-8



Jahon mamlakatlari ijtimoiy- iqtisodiy geografiyasini o’qitishda o’yinli texnologiyalardan foydalanib dars o’tilsa o’quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, nutqi ravshanlashadi va zukkoligi oshadi. O’yinli texnologiya

natijasida har bir o'quvchi ongida o'sha mavzu haqida tasavvurlar hosil bo'ladi. Masalan rivojlangan mamlakatlar bo'yicha o'quvchilar davlatlar nomidan gapirishadi. O'quvchilarga davlatlar nomi beriladi va o'quvchilar o'sha davlat haqida gapirib beradi. [7]

1-o'quvchi "Germaniya"

Men Germaniya davlatiman. Men Markaziy Yevropada joylashganman. Quruqlikda Niderlandiya, Belgiya, Lyuksenburg, Fransiya, Shvetsariya, Avstriya, Chexiya, Polsha, Daniya davlatlari bilan chegaradoshman. Mening rivojlanishimning asosiy sabablaridan biri dengiz yaqinida joylashganligim va qo'shni mamlakatlarning yirik port shaharlariga yaqinligim hisoblanadi. G'arbiy Yevropa davlatlari ichida men o'zimning toshko'mir va qo'ng'ir ko'mirim bilan ajralib turaman. Toshko'mir konlarim: Rur, Saar va Axen. Yirik daryolarim: Reyn, Elba, Vezer, Dunay.

Aholim haqida aytadigan bo'lsam, hozirda 83 mln kishidan ortiq. Davlat tilim- nemis tili. Ustivor din-xristiyan dini.

2-o'quvchi "Buyuk Britaniya".

Mening rasmiy nomim Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi. Poytaxtim- London. Bilasanmi Germaniya men sen haqingda sen aytmagan nimani bilaman. Maydoning 357 ming km² ligini va poytaxting Berlin shahri ekanligini bilaman. Mening maydonim esa 244 ming km². Iqlimim mo'tadil. Mening davlatimda tabiiy o'sish past, Urbanizatsiya darachasi 80%. Davlat tuzumim- parlamentlik monarxiya. Davlat tilim- ingliz tili. Sanoatda: energetika sanoati, ko'mir, neft, tabiiy gaz qazib olish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligimda dehqonchilikka nisbatan chorvachilik ustunlik qiladi.

3-o'quvchi "Fransiya".

Mening maydonim -551 ming km². Aholining soni-56mln.kishi. Poytaxtim- Parij shahri. Men juda qulay geografik o'rinda joylashganman. G'arbiy Yevropada maydonimning kattaligi jixatdan birinchi, iqtisodiy taraqqiyotda Germaniyadan so'ng ikkinchi o'rinda turaman. Davlat

tuzilishim-prezidentlik respublika.Davlat tilim- fransuz tili, dinimiz esa katolik hisoblanadi.Sanoatda asosan engil sanoat rivojlangan. Qora metallurgiya yaxshi rivojlangan ya'ni po'lat yiliga 30 mln. tonna eritiladi. Meni davlatimda rangli metallurgiya, mashinasozlik va kemasozlik tarmoqlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

4-o'quvchi "Italiya".

Men Italiya Respublikasiman.Poytaxtim- Rim shahri.Maydonim 3011230 km².Aholim-57985395 kishi.Tilim- italiyan tili.Men o'zimni geografik joylashishimni aytadigan bo'lsam, Janubiy Yevropada, Apenin yarim orolida joylashganman.Bilasizlarmi meni shaklimni nimaga o'xshatishadi. Germaniya: Xa, bilamiz qizlarning etikchasiga o'xwatishadi va shu bilan birga Sardiniya, Sitsiliya, Elba orollari va bir qancha kichik orollar ham menga qarashli. Hududimning 80% i tog' va qirlardan iborat. Sanoatda asosiy tarmoqlar: avtomobilsozlik, kimyo sanoati, metallurgiya, oziq-ovqat va boshqa bir necha tarmoqlar rivojlangan.

5-o'quvchi. "Rossiya Federatsiyasi".

Men dunyodagi maydoni jixatdan eng katta davlatman.Maydonim-1707500 km².Aholim-141331073 kishi.Davlat tilim- rus tili. Yevropa va Osiyo qit'alarida joylashganman.

Men dunyoda kosmik raketalar, atom dvigatellari, eng zamonaviy samalyotlar, programmalashgan stanoklar ishlab chiqarishda oldingi o'rinda turaman. Neft va gaz, temir rudasi, kaliy tuzi qazib chiqarishda, po'lat cho'yan eritishda dunyoda birinchi o'rinda turaman va shu bilan birga metallurgiya sohasida ham juda boyman ya'ni o'rmon hududim juda katta maydonni egallaydi. Umumiy o'rmon maydonlarim 766 mln.gektarni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligimda ikki asosi-dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlaridan iborat. Meni davlatimda transportning barcha tarmoqlari rivojlangan. Asosiy transport turi-temir yo'l transportidir.

6-o'quvchi."Yaponiya".

Men Sharqiy Osiyoda joylashganman. Maydonim-377535 km². Aholim-127,3 mln. kishi. Men to'rtta yirik va besh mingdan ortiq mayda orollardan tashkil topganman. Yirik orollarim: Xonsiyu, Xokkaydo, Kyusyu va Sikoku orollaridir. Mening davlatim bir millatli, aholimning 99 % i Yapon millatiga mansubdir. Sanoatda gidro, geotermal, quyosh, dengiz elektro stansiyalari o'z xissasini qo'shadi. Avtomobilsozlikda ko'pincha yutuqlarga erishganman. Hozirgi davrda mening iqtisodiyotimning farqi va ramzi elektronika sanoati ekanligini butun dunyo biladi. Qishloq xo'jaligimda dehqonchilik ustunlik qiladi. Men juda ko'p mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib boraman. Ular orasida 1/3 va importning 1/4 qismi AQSH xissasiga to'g'ri keladi.

7-o'quvchi "Amerika Qo'shma Shtatlari".

Men er maydonim jihatdan G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan katta va dunyoda Rossiyadan keying ikkinchi o'rinda turaman. Men 50 ta shtat va Kolumbiya Federal okrugidan iborat Federativ respublikaman. Poytaxtim- Vashington shahri. Mening maydonim- 9363200 km². Yirik neft konlarim Alyaska, Texas, Nyu-Meksika, Luiziana, Kaliforniya shtatlarida va Meksika ko'rfazida joylashgan. Daryolarimdan Kolumbiya, Kalarado, Niagara gidroenergiya resurslariga boy bo'lib, undan samarali foydalanaman va kelajakdagi avlodlarimga ham yig'ib boraman. Avtomobilsozlikda- "Jeneral Motars", "Ford Mator" bo'lsa, aviasozlikda- "Boing", "Makdoland Dueglas", "Lokxid", elektronikada- "Jeneral elektroniks", kompyuter ishlab kichiqarishda- "Internyushnil biznes Mashins" kompaniyalarim eng yiriklari hisoblanadi.

8-o'quvchi "Kanada"

Men Shimoliy Amerikada joylashganman. Jahonda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlarning biri hisoblanaman. Maydonim- 9976,1 ming km², Aholimning soni- 31,6 mln kishi. Mening davlat tuzumim- parlamentar monarxiya va men Buyuk Britaniyaning dominioniman, lekin 1931-yilda menga to'liq mustaqillik berilgan. Men tabiiy resurslarga va suv, o'rmon resurslariga juda boy mamlakatman. Mening hududimda uran, temir, nikel, mis, qo'rg'oshin

va rux, oltin va kumush, neft va tabiiy gazning yirik konlari mavjud. Qishloq xo'jaligimda dexqonchilik ham chorvachilik ham juda yaxshi rivojlangan.[10]

O'qituvchi: “Bolalar mana juda yaxshi tayyorlanib kelibsizlar. Bilasizlarmi bu mamlakatlardan tashqari dunyoda rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlar ham bor. Bizning ona vatanimiz bo'lmish O'zbekiston ham rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida ko'rishimiz uchun yaxshi o'qishimiz va intizomli bo'lishimiz lozim”.

O'qituvchi o'quvchilarni rag'batlantirib, baholab o'yinni tugatadi. Bu o'yin natijasida o'quvchilar rivojlangan mamlakatlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi va o'zlari o'sha mamlakat nomidan gapirgani esda saqlab qolishga sabab bo'ladi.

Interfaol metodlardan jahon mamlakatlari ijtimoiy- iqtisodiy geografiyasini o'qitishda foydalanish. Zamonviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilargayetkazib berish, ularda ma'lum mavzu yuzasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogic mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Interfaol metodda qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar:

- Ta'lim- tarbiya jarayoning samaradorligini oshirish;
- O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- O'quvchilar tomonidan geografiya fani bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlash;
- O'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- O'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish;

- Pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlash zarur.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogic texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. [13]

“Rasmlarni to'g'ri joylashtirish ” metodi:

9-“A” sinf. Sinfda 30 ta o'quvchi bor. Sinf o'quvchilarini oltitadan olti guruhga ajratib 5 daqiqa vaqt ichida aralashtirilgan kubiklarni tartib bilan joylashtirishlarini aytdim. Har bir guruh uchun bitta qit'aning shaklini to'g'ri joylashtirish topshirildi.

Guruhlar.

1. “Amerika” guruhi
2. “Osiyo” guruhi
3. “Afrika” guruhi
4. “Yevropa” guruhi
5. “Avstraliya” guruhi
6. “Antarktida” guruhi

ya'ni qit'alar nomi bilan nomlandi. Vazifani birinchi bo'lib, “Avstraliya” va “Osiyo” guruhlari va undan keyin esa “Afrika”, “Antarktida”, “Amerika” guruhlari, undan keyin esa “Afrika”, “Antarktida”, “Amerika” guruhlari eng oxiri bo'lib “Yevropa” guruhi bajarib bo'lishdi. Birinchi bo'lib bajargan guruhlarni ya'ni “Avstraliya” va “Osiyo” guruhlariga “5” baho qo'ydim va birinchi o'rinni berdim.

“Afrika”, “Antarktida”, “Amerika” guruhlariga 2-o'rinni berib, “4” baho bilan baholadim. “Yevropa” guruhiga 3-o'rinni berdim. Vazifani to'g'ri va tartib bilan joylashtirganligi uchun bu kguruhga ham “4” baho qo'ydim. Bu metod natijasida men o'quvchilarning ziyrakligini, chaqqonligini, bilimdonligini sinab ko'rdim va samarali natijaga erishdim. [7]

3.2. JAHON MAMLAKATLARI IJTIMOIIY-IQTISODIY GEOGRAFIYASI (GFR) BO'YICHA DAR ISHLANMASI

1-soatlik dars ishlanmasi

(9-sinf misolida)

Darsning mavzusi: Germaniya Fedaretiv Respublikasi xo'jaligi

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga GFR xo'jaliliga xos xususiyatlar, xo'jaligining asosiy sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari, transport tarmoqlari va ularning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati hamda tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida ilmiy tushunchalar berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarga vatanparvarlik, baynalminal, ahloqiy, kasbiy, ekologik va mehnat tarbiyasini berish, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish, miliy g'urur-iftixor tuyg'usini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O'quvchilarning GFR xo'jaligi to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, darslik, karta va yozuvsiz karta ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini va nutq hamda muloqat madaniyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Globus, dunyoning siyosiy xaritasi, 9-sinf atlas, GFR xo'jaligi to'g'risida ma'lumot beruvchi prezentatsion materiallar va slaydlar.

Darsda qo'llaniladigan texnologiya: Interfaol usullar, debat, an'anaviy ta'lim texnologiyasining ma'ruza usuli.

Dars rejasi:

1. O'qituvchining kirish so'zi.
2. Dunyo xabarlar (2 daqiqa);
3. Guruhlarga bo'lish (2 daqiqa);

4. Uy vazifa bo'yicha ishlash:

1. Diqqatni tortish.(3daqqa);

2. Evropadagi eng rivojlangan davlatlar. GFR xo'jaligi mavzusi bo'yicha guruhlariga topshiriqlar.(7 daqiqa)

3.Umumlashtirish.(2 daqiqa);

5. Yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining so'zi.(10 daqiqa);

6.Mavzuni mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq.(10 daqiqa)

7.Darsni yakunlash.

8. Guruhlarni rag'bat kartochkalarini hisoblash,o'quvchilarni baholash (2 daqiqa).

Darsning borishi:

1. Darsning tashkil etilishi:

a) Salomlashish,davomatni aniqlash;(1 daqiqa)

b) O'quvchilarni darsga hozirlab,jonli muhit yaratish(1 daqiqa).

2. Guruhlarga bo'lish (2 daqiqa);

Mavzuni o'rganish uchun o'quvchilar maqsadlariga ko'ra 4 guruhga bo'linib oladilar.

I-guruh-Shimoliy Yevropaliklar

II-guruh-G'arbiy Yevropaliklar

III-guruh-Janubiy Yevropaliklar

IV-guruh- Sharqiy Yevropaliklar

O'quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar ishlab chiqiladi:

II. Oltin qoidalar:

1. Faollik.
2. Vaqtga rioya qilish.
3. Fikrni takrorlamaslik.
4. O`zaro hurmat.
5. To`g`ri javob uchun rag`bat.
6. O`ng qo`l qoidasi.
7. Bir yoqadan bosh chiqarish.
8. Intizom.

3. Uy vazifa bo`yicha ishlash:

1)Diqqatni tortish.Kim ko`p davlat yozadi, poytaxtini toping.(3daqiq);

II. Yevropadagi rivojlangan davlatlar. GFRning geografik o`rni, mamlakat haqida umumiy ma`lumotlar mavzusi bo`yicha guruhlariga topshiriqlar.(7 daqiqa)

1-topshiriq:

I-guruh Shimoliy Yevropa:

1. Shimoliy Yevropa subregionining joylashgan geografik o`rnidagi qulay va noqulayliklari haqida tushuncha bering.
2. GFR ning geografik o`rnini baholang.

II-guruh G`arbiy Yevropa:

- 1.G`arbiy Yevropa subregionining joylashgan geografik o`rnidagi qulay va noqulayliklari haqida tushunchabering.
2. GFR ning tabiiy resurslar bilan ta`minlanganligini baholang.

III-guruh Janubiy Yevropa:

- 1.Janubiy Yevropa subregionining joylashgan geografik o`rnidagi qulay va noqulayliklari haqidatushuncha bering.

2. GFR aholisi ta'riflang va mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlari
yuqori darajada ekanligi qanday omillarga bog'liq ekanligini izohlang.

IV-guruh Sharqiy Yevropa:

Sharqiy Yevropa subregionining joylashgan geografik o'rnidagi qulay va noqulayliklari haqida tushuncha bering.

2. Germaniya Yevropadagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan ekanligini nimalar bilan baholaysiz?

2-topshiriq: Yevropa davlatlaridan 5 tasi to'g'risidagi quyidagi jadvalni atlas ma'lumotlaridan foydalanib to'ldiring.

I-guruh Shimoliy Yevropa:

№	Mamlakat Nomi	Poytaxti	Davlat tuzumi	Tabiiy resurs-lari	Iqtisodiyoti	
					Sanoati	Qishloq xo'jaligi
1						
2						
3						
4						
5						

II-guruh G'arbiy Yevropa:

№	Mamlakat Nomi	Poytaxti	Davlat tuzumi	Tabiiy resurslari	Iqtisodiyoti	
					Sanoati	Qishloq xo'jaligi
1						
2						
3						
4						
5						

III-guruh Janubiy Yevropa:

№	Mamlakat Nomi	Poytaxti	Davlat tuzumi	Tabiiy resurslari	Iqtisodiyoti	
					Sanoati	Qishloq xo'jaligi
1						
2						

3						
4						
5						

IV-guruh Sharqiy Yevropa:

№	Mamlakat Nomi	Poytaxti	Davlat tuzumi	Tabiiy resurslari	Iqtisodiyoti	
					Sanoati	Qishloq xo'jaligi
1						
2						
3						
4						
5						

III. Yangi mavzu bo'yicha o'qituvchining kirish so'zi.

(10 daqiqa);

Doskaga osiladi:

Bugungi darsda bilishimiz kerak bo'lgan ma'lumotlar:

1. Tashqi savdo aylanmasi
2. Yevropa va jahon xo'jaligi
3. Fantalab tarmoqlar
4. GFR sanoat tarmoqlari: Elektroenergetika, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik va metalga ishlov berish, kimyo sanoati.
5. Transport tarmoqlari: Quruqlik transpori, havo transporti, suv transporti
6. Tashqi savdo aylanmasi
7. Xalqaro bozor
8. Eng yirik kompaniyalar
9. Jahondagi eng yirik investor
10. Eksport-import.

Yuqoridagi atamalarning barchasiga o'qituvchi ma'lumot beradi.

IV. Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq.(10 daqiqa. 2 daqiqa tayyorlanishga, 2daqiqadan himoyaga.)

I-guruh: Blis o'yin

№	Savollar	Yakka javob	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1	GFRning tashqi savdo aylanmasi bo'yicha jahondagi o'rni			"Volksvagen", "VMW", "Orel", "Ford-Verke" 2
2	Avtomobilsozlikning yirik markazlari			Leverkuzen, Kyoln, Darmagen, Frankfurt-

				Myan 3
3	Kimyo sanoatining yirik markazlari			60 % 4
4	Umumiy yuk aylanmasida avtomobil transportining ulushi			50% 5
5	Tashqi savdo aylanmasi			AQShdan keyin 2-o'rinda 1

1. GFR elektroenergetika sanoatiga klaster tuzing va tuzgan klasteringizni izohlang.

II-guruh: Blis o'yin

№	Savollar	Yakka javob	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1	GFR energetikasi ko'mirning hissa			Norvegiyadan keyin 2-o'rinda 2
2	Alyuminiy eritish bo'yicha Germaniyaning G'arbiy Yevropadagi o'ri			4 o'rinda 4
3	Mashinasozlikning yirik markazlari			30 %
4	Kompyuter tashuvchi kemalar tonnaji bo'yicha nechanchi o'rinda			Yaponiya
5	Ishlab chiqarish jihozlarini eksport qilish bo'yicha qaysi mamlakat bilan musabaqalashmoqda			Myunxen, Leysig, Berling, Gamburg 3

2. GFR metallurgiya sanoatiga klaster tuzing va uni izohlang.

III-guruh: Blis o'yin

№	Savollar	Yakka javob	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1	IESlar port shaharlarida qaysi yoqilg'i hisobiga ishlamoqda			Energiya resurslari bilan ta'minlanganlik va xomashyo 2

2	Metallurgiya korxonalari joylashishining bosh omili			90 % 4
3	Samalyotsozlikning yirik markazlari			Ko'mir 1
4	Eksportining necha foizini sanoat mahsulotlari tashkil qiladi			5 %
5	O'zbekiston Respublikasining jami tovar aylanmasining necha foizi GFR hissasiga to'g'ri keladi			Myunxen, Aersburg, Gamburg, Bremen 3

3. GFR mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatiga klaster tuzing va uni izohlang.

IV-guruh: Blis o'yin

№	Savollar	Yakka javob	To'g'ri javob	Sizning harakatingiz
1	Neftning qayta ishlash korxonalarining asosiy markazlari qayerda joylashga			"Vaer", "Hoechst", "Vasf" 2
2	Kimyo sanoati konsernlarini belgilang			"Volksvagen", "VMW", "Orel", "Ford-Verke" 3
3	Avtomobilsozlikning yirik korporatsiyalarini belgilang.			16 4
4	Germaniyadagi jami aeroportlar soni			Gamburg, Kyoln, Karlsruhe, Shvedt 1
5	Oliy darajadagi avtomobillar uzunligi			11000

2. GFR kimyo sanoatiga klaster tuzing va uni izohlang.

Rag'batlantirish.Dars yakunida guruhlar to'plagan davlatlarning bayroqlari sanaladi, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi. Guruhlarga darsdagi ishtirokiga qarab “Eng bilimdon guruh”, “Eng faol guruh “, “Eng hamjihat guruh” unvonlari o'z egalariga topshiriladi.

Darsni yakunlash.

Uyga vazifa:Mavzuni “Insert” belgilaridan foydalanib o'qish.

Tarqatma material

1. Quyidagi jadvalni ko'rsatilgan namunadagidek to'ldiring.

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Joylashagan o'rne	Davlat tuzumi	Tabiiy resurslari
1	GFR	Berlin	Evropa	Parlamentar Respublika	Ko'mir, tabiiy gaz, tosh tuzi, kaliy va magniy tuzlari
2					
3					
4					
5					
6					

2.Tabiiy resurslar bilan yaxshi ta'minlangan davlatlarni yozing

X U L O S A

Germaniya Federativ respublikasi iqtisodiyotini hududiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mavzusini yoritishda Germaniya Federativ respublikasining tarixi, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, iqtisodiy geografik o'rni, aholisi va mehnat resurslari uning xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganib chiqdik.

Yevropa dunyoning iqtisodiy jixatdan eng rivojlangan regionlaridan biridir. Shuning uchun ham uning hududida dunyo miqyosida iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan ko'pgina mamlakatlarning joylashganligi bejiz emas. Rivojlangan "yettilik mamlakatlari" qatoridayetakchi o'rinlarda turuvchi, Yevropadagi eng rivojlangan davlatlar ichida o'zining ulkan iqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi keskin ajralib turadi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida uning iqtisodiy va siyosiy-geografik holatining o'ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Yevropaning markazida, iqtisodiy jixatdan yuksak rivojlangan davlatlarga yaqin, transyevropa bosh yo'lining kenglik va uzunlikdagi kesishganyerida joylashganligi Germaniyaga katta foyda keltirmoqda. Muhim afzalliklaridan yana biri- Germaniyaning dengiz yaqinada joylashganligi va qo'shni mamlakatlarning yirik port shaharlariga yaqinligi bilan bog'langandir.

GFR o'zining tabiiy boyliklarga boyligi bilan ham boshqa davlatlardan ajralib turadi. G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasida o'zining toshko'miri va qo'ng'ir ko'miri bilan ajralib turadi.

Germaniyaning Yevropa va jahon xo'jaligidagi muhim ahamiyatini uning sifatli mahsulot chiqarishga qaratilgan sanoati belgilaydi. Germaniya energetikasi o'z ehtiyojlarining yarmidan ko'pini import hisobiga qondiradi. Neft va gaz asosiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari qora va rangli metallurgiya mahsulotlari ham chet eldan eksport qilib olinadi va u ikkilamchi xomashyoda ishlaydi. Mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoatining eng rivojlangan

tarmoqlaridan biridir. Mamlakat sanoat mahsulotlari va eksportining yarmiga yaqin qismi mashinasozlikka to'g'ri keladi.

Transport yo'llarining zichligi bo'yicha Germaniya jahondagi oldingi o'rinlarda turadi. Buyerda transportning barcha turlari rivojlangan. Ayniqsa temir yo'l transporti bilan havo transportining ahamiyati yuqori. Temir yo'llarining uzunligi, 16 ta aeroportlarning mavjudligi tashqi iqtisodiy aloqarning yaxshi shakllanishiga olib keladi. Germaniya tashqi savdoning umumiy hajmi bo'yicha AQSH dan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Tashqi savdo aylanmasining 50 foizi va olib chiqilayotgan sarmoyaning asosiy qismi shu davlatga to'g'ri keladi. Bu ham o'z navbatida GFR ning iqtisodini yanada jadal rivojlanayotganini ko'rsatib beradi. Xalqaro bozorda GFR yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlovchi davlat sifatida tan olingan. Mamlakat YaMM yuqoriligi ham mamlakatning rivojlanish darajasini yuqoriligini ko'rsatadi ya'ni YaMM 3.089 trlnni tashkil qilsa, aholi jon boshiga taqsimlanganda 39442 ming AQSH dollarani tashkil qiladi.

Xulosa so'ngida shuni ta'kidlash mumkinki, Germaniya iqtisodiyoti mana shunday boshqarilsa hamda mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanilsa kelajakda bundan ham yuqori istiqbollarga erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” Toshkent 1997
2. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” O’zbekiston 2008
3. Karimov I. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” O’zbekiston 2009
4. Karimov I., O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent O’zbekiston 1997
5. Барашевой Й.Г. “Исползование средств обучения в преподавании географии” Москва 1989
6. Сепегин С.Н., Каширина О.Н. Переход к новой модели экономического роста — ключ к успеху в развитии пищевой промышленности в условиях ТС и ВТО журнал “Пищевая промышленность” № 1 2012
7. Даринский А.В. V Методика преподавания географии издательство.
8. Кориянко О.В. “Экономическая география ” Москва 2005
9. Maksakovskiy V.P. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi ” Toshkent “O’qituvchi” 1995
10. Mamadaliyev R. “Dunyo mamlakatlari” Toshkent 2012
11. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi Toshkent 2000
12. Qayumov A, Safarov I, Tillaboyeva M “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi ” Toshkent “O’zbekiston” 2006
13. Soliyev A “Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot” Toshkent 2013
14. Vahobov X, Tillaboyeva M “Iqtisodiy geografiya asoslari” Toshkent. “O’qituvchi” 2001

15. www.tdpu.uz

16. www.ZiyoNet.uz

17. www.pedagog.uz

18. www.vikipediya.org.

FOYDALANILGAN IZOHLI LUG'AT

№	O'zbekcha	Inglizcha
1.	Agrar	Agrarian
2.	Abadiy	Eternally
3.	Aholi	Population
4.	Aniq	Faithfully
5.	Asr	Century
6.	Atrofida	About
7.	Atrof-muhit	Environment
8.	Avtomobil	Car
9.	Baho	Price
10.	Bahor	Spring
11.	Balandlik	Suight
12.	Barqaror	Stable
13.	Benzin	Benzene
14.	Bilim	Knowledge
15.	Boylik	Wealth
16.	Bozor	Market
17.	Bug'doy	Grain
18.	Buyuk	Great
19.	Chegara	Frontier
20.	Daromad	Forward
21.	Daryo	River
22.	Dasht	Deser
23.	Davlat	State
24.	Dehqonchilik	Farming farm
25.	Delta	Delta
26.	Demokratiya	Democracy
27.	Dengiz qirg'og'i	Coast
28.	Don	Grain
29.	Ehtiyot	Need

30.	Eksport	Export
31.	Firma	Firm
32.	Foyda	Gain
33.	Foydalanmoq	Utilization
34.	Gaz	Gas
35.	Geografik o'rin	Geographical
36.	Geografiya	Geography
37.	Geologiya	Geologist
38.	Global	Global
39.	Go'sht	Meat
40.	Guruh	Group
41.	Halqaro savdo	International trade
42.	Har yili	Annual
43.	Harorat	Degree
44.	Havza	Basin
45.	Hayot	Life
46.	Hayvonot dunyosi	Fauna
47.	Himoya qilmoq	Defend
48.	Hokimiyat	Government
49.	Hudud	Border
50.	Ichki	Internal
51.	Import	Import
52.	Intensive	Intensive
53.	Iqlim	Climat
54.	Iqtisod	Economy
55.	Ishlab chiqarish	Fabrication
56.	Issiq	Hot
57.	Ittifoq	Union
58.	Jahon	World
59.	Jahon bozori	Worlds market
60.	Janub	South
61.	Janubi g'arb	South west
62.	Janubi sharq	South east
63.	Javob	Answer
64.	Joylashmoq	Allocation
65.	Joylashuv	Disposal
66.	Karta	Char
67.	Kimyoviy tola	Chemical fiber
68.	Ko'rinish	Look

69.	Ko'mir	Caol
70.	Ko'rgazmali	Visual
71.	Korxona	Enterprise
72.	Madaniy	Cultural
73.	Mahsulot	Product
74.	Manzara	Representation
75.	Maqsad	Aim
76.	Markaz	Centre
77.	Mavzu	Topic
78.	Maydon	Area
79.	Menejment	Management
80.	Milliy iqtisodiyot	National politece
81.	Mintaqa	Continent
82.	Miqdor	Deal
83.	Mis	Copper
84.	Muhim	Proudly
85.	Muommolar	Problems
86.	Mustaqillik	Independence
87.	Muzlik	Glacier
88.	Nam	Moist
89.	Neft	Oil
90.	Ob-havo	Weather
91.	Okean	Ocean
92.	Omil	Factor
93.	Oqsil	Acsia
94.	O'rab turgan	Ambient
95.	O'rmon xo'jaligi	Arboriculture
96.	Orol	Island
97.	O'simlik	Plan
98.	Po'lat	Steel
99.	Port	Port
100.	Poytaxt	Capital
101.	Pul	Money
102.	Qadimgi	Ancient
103.	Qarshi	Against
104.	Qirg'oq bo'yi	Along shore
105.	Qish	Winter
106.	Qishloq	Village
107.	Qishloq xo'jaligi	Agriculture

108.	Qulay	Conerinin
109.	Quruqlik	Land
110.	Raqobat	Revalry
111.	Rayon	Gistrict
112.	Rel'ef	Relief
113.	Respublika	Republic
114.	Rivojlanish	Development
115.	Samarali	Fruitly
116.	Sanoat	Industar
117.	Savol	Question
118.	Saylov bulyeteni	Ballot
119.	Shahar	City
120.	Shamol	Wind
121.	Sharoit	Condition
122.	Sharq	East
123.	Shartnoma	Agreement
124.	Sifatli	Quality
125.	Siyosat	Politecs
126.	Suv	Water
127.	Tabiat	Nature
128.	Tabiiy o'sish	Natural increase
129.	Tarix	History
130.	Tasir ko'rsatmoq	Ascendant
131.	Tog'	Mountain
132.	Toshko'mir	Carboniferous
133.	Tug'ilish darajasi	Birth rate
134.	Turizm	Hiking
135.	Unsur	Component
136.	Uzun	Long
137.	Vaqt	Teme
138.	Viloyat	Province
139.	Vodiy	Valley
140.	Xo'jalik	Econm
141.	Xujjat	Document
142.	Xulosa	Conclusion
143.	YaIM	Gross domestic product
144.	YaMM	Gross national product
145.	Yer	Earth
146.	Yillik	Anniversary

147.	Yo'l	Dear
148.	Yomg'ir	Rain
149.	Yuqori	Up
150.	Yashamoq	Live